

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA  
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

DAVLAT QO'MITASI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

**Himoyaga ruhsat**

Kafedra mudiri

\_\_\_\_\_

20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_

“ALOQA OPERATORLAR VA INTERNET PROVAYDERLARI  
FAOLIYATIDA SUG'URTA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH”

mavzuida

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bitiruvchi \_\_\_\_\_ **Xonto'rayev F.T**  
imzo f.i.sh.

Rahbar \_\_\_\_\_ **Karimova Sh.T**  
Imzo f.i.sh.

Taqrizchi \_\_\_\_\_  
imzo f.i.sh.

**XFX bo'yicha** \_\_\_\_\_ **Qodirov F. M**  
maslahatchi imzo f.i.sh.

Toshkent – 2013 yil

O'ZBEKISTON ALOQA, AXBOROTLASHTIRIS VA  
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI **DAVLAT QO'MITASI**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

**IQTISOD VA BOSHQARUV** fakulteti

**Iqtisod** kafedrası

Yo'nalishi 5340100 Iqtisodiyot (Aloqa va axborotlashtirish)

TASDIQLAYMAN

Kafedra mudiri

20\_\_ y « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**Talaba Xonto'rayev Farruh Tovfuqjon o'g'lining**

“Aloqa operatorlari va internet provayderlari faoliyatida sug'urta  
munosabatlarini rivojlantirish”

**mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga**

T O P S H I R I Q

1. **Mavzu** universitetning 2013 yil « 7 » dekabrda 1304 – 06 – sonli buyruq bilan tasdiqlangan.
2. **Ishni himoyaga topshirish muddati:** 18.06.2013
3. **Ishga oid dastlabki ma'lumotlar:** O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti buyruq va farmoyishlari, iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish usullari, ilmiy adabiyotlar, internet saytlar
4. **Hisoblash–tushuntirish yozmalar mazmuni (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati):** Milliy sug'urta bozorida sug'urta munosabatlarini tashkil etish asoslari, Aloqa operatorlari va internet provayderlar faoliyatida sug'urta munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari, aloqa operatorlari va internet provayderlari faoliyatida sug'urta munosabatlarining hozirgi holati tahlili, Hayot faoliyati xavfsizligi.

5. **Grafik material ro'yxati:** Sug'urta to'lovlari va mukofotlarining o'sish dinamikasi, Sug'urta mukofotlarining zararlilik darajasi tahlili, ixtiyoriy va majburiy sug'urta yo'nalishi bo'yicha sug'urta mukofotlari,
6. **Topshiriq berilgan sana:** 24 dekabr 2012 yil.

**Rahbar** \_\_\_\_\_

imzo

**Topshiriq oldim** \_\_\_\_\_

imzo

### 7. Ishning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilar:

Bo'lim nomi	Maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriq	Topshiriq
1. Bob.	Karimova Sh.T	24.12.2012	24.12.2012
2. Bob.	Karimova Sh.T	04.02.2012	04.02.2012
		22.04.2012	22.04.2012
3. Bob.	Karimova Sh.T	18.05.2012	18.05.2012
	Qodirov E.M		

### 8. Ishni bajarish grafigi

T/r	Ish bo'limlari nomi	Bajarish muddati	Rahbar (maslahatchi) imzosi
1.	Milliy sug'urta bozorida sug'urta munosabatlarini tashkil etish asoslari	04.02.2012	
2.	Aloqa operatorlari va internet provayderlari faoliyatida sug'urta munosabatlarining hozirgi holati tahlili	25.04.2012	
3.	Aloqa operatorlari va internet provayderlar faoliyatida sug'urta munosabatlarini rivojlantirish	13.05.2012	
4.	Hayot faoliyati xavfsizligi	25.05.2012	

Bitiruvchi \_\_\_\_\_

20\_\_ yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_

imzo

Rahbar \_\_\_\_\_

20\_\_ yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_

imzo

Ushbu bitiruv malakaviy ishda sug'urtaning mohiyati, sug'urta bozorining hozirgi holati tahlili, aloqa operatorlari va internet provayderlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va ularning manfaatlarini sug'urtalash zarurligi, aloqa operatorlari va internet provayderlari foydalanayotgan sug'urta turlarining tahlili, AKT sohasini sug'urtalashda xorij tajribasi ko'rib chiqilgan. Aloqa operator va internet provayderlari faoliyatida sug'urta munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

В данной выпускной квалификационной работе рассматривается смысл страхования, состояние рынка – страхование на данный момент, своего рода качество деятельности операторов связи и интернет провайдеров и необходимость страхования их имущества, а также анализ используемых видов страхования в операторах связи и интернет провайдеров, международный опыт в страховании. Предлагается практические предложения по разработке страховой деятельности между операторами связи и интернет провайдерами.

**In this final qualifying work, the meaning of Insurance, the state of the market - insurance at the moment, a kind of quality of telecommunication operators and Internet service providers and other property insurance benefits and also the analysis used by insurance carriers and Internet service providers, international insurance experience of the ICT sector are observed. Practical suggestions for developing of insurance activity between telecommunication operators and Internet service providers are offered.**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>5</b>
<b>I. MILLIY SUG‘URTA BOZORIDA SUG‘URTA MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH ASOSLARI</b>	
1.1. Sug‘urta munosabatlarining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati.....	10
1.2. Aloqa operatorlari va internet provayderlar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning manfaatlarini sug‘urtalash zarurligi.....	21
<b>II. ALOQA OPERATORLARI VA INTERNET PROVAYDERLARI FAOLIYATIDA SUG‘URTA MUNOSABATLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI</b>	
2.1. Milliy sug‘urta bozorining hozirgi holati tahlili.....	33
2.2. Aloqa operatorlari va internet provayderlari foydalanayotgan sug‘urta turlarining tahlili.....	45
<b>III. ALOQA OPERATORLARI VA INTERNET PROVAYDERLAR FAOLIYATIDA SUG‘URTA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</b>	
3.1. Rivojlangan chet davlatlarda sug‘urta munosabatlarini tashkil etilishi.....	56
3.2. Aloqa operatorlari va internet provayderlar faoliyatida sug‘urta munosabatlarini rivojlantirishni ustivor yo‘nalishlari.....	70
<b>IV. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI</b>	
4.1. Ishlab chiqarish mikroiklimining gigienik normalari.....	74
4.2. Aholi va hududlarni texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish.....	78
<b>XULOSA.....</b>	<b>84</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>86</b>
<b>ILOVA.....</b>	<b>89</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ulkan iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar hozirgi kunda o‘z samarasini berib kelmoqda. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan islohotlarning “O‘zbek modeli” ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Xususan korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib xususiylashtirilmoqda hamda xususiy mulkchilikka keng yo‘l ochilmoqda va iqtisodiy sohada mustahkam qonunchilik bazasi yaratilmoqda. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modelnizatsiya qilishda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: “Butunlay yangicha, erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish, tarkibiy o‘zgarishlar, modernizatsiya, xususiylashtirish va liberallashtirish maqsadlari sari, xususiy mulkning mavqeini oshirishga qaratilgan qat’iy islohotlarni olib borish!” kerakligi aytgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu ...jahon moliyaviy inqirozi, uning ta’siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlashdan iborat<sup>2</sup>... Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta’siri, undan ko‘riladigan zararining darajasi va ko‘lami birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog‘lik barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog‘liqligini isbotlashga hojat yo‘q...”<sup>3</sup>. O‘z navbatida xususiy mulkning himoyasini mustahkamlashimiz, xususiy mulkdor qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan o‘z mulkning daxlsizligiga also shubha qilmasligini ta’minlaydigan ishonchli

---

<sup>1</sup> I.Karimovning “Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning xayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir” asari. Toshkent „O‘zbekiston“ nashriyoti. 2007 yil. 4 – bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: «O‘zbekiston», 2009.- 4 b.

<sup>3</sup> O‘sha yerda -7 b.



kafolatlar tizmini yaratishimiz zarur. Ushbu tizimni yaratilishida sugʻurta munosabatlarining ham alohida oʻrni mavjud.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishida va ularni moliyaviy faoliyatida koʻrilishi ehtimol boʻlgan risklardan himoyalashda sugʻurta tizimi katta ahamiyatga ega boʻlgan soha sanaladi.

Keyingi paytlarda sugʻurta munosabatlarini rivojlantirishda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan ushbu sohaning qonunchilik bazasi yaratildi va u yildan yilga takomillashib bormoqda. Asosiy qonun hujjat boʻlib “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatimizda sugʻurta korxonalarini tuzish, tashkil qilish yoʻllari, vazifalari belgilab berilmoqda. Sugʻurta korxonalar tomonidan turli koʻrinishdagi sugʻurta xizmatlari taklif qilinmoqda.

Bugungi kunda axborot kommunikatsiya sohasini yildan – yilga rivojlanib bormoqda. Aloqa va axborotlashtirish sohasini tubdan takomillashtirish va boshqaruv darajasini oshirish maqsadida 2012 yil 16 oktabrda Oʻzbekiston Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiyalari davlat qoʻmitasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PF – 4475 sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu farmondan koʻzlangan maqsad aloqa va axborotlashtirish sohasini tubdan takomillashtirish, sohada va iqtisodiyot tarmoqlarida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini jahon standartlari darajasida rivojlantirish va joriy etishdir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasida quyidagilar aytib oʻtildi:

“Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi chora-tadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz oʻzimizga shuni aniq tasavvur etishimiz kerakki, iqtisodiyotning barcha sohalariga, kundalik hayotimizga zamonaviy axborot-

kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish bo'yicha tub va ijobiy ma'nodagi portlash effektini beradigan o'zgarishlarni amalga oshirmasdan turib, istiqboldagi maqsadlarimizga erishish qiyin bo'ladi. Biz qisqa vaqt mobaynida nafaqat axborot xizmatlari ko'rsatishning ko'plab turlari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etishimiz, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida yuksak darajaga erishgan ilg'or mamlakatlar safiga qo'shilishimiz zarur.

Yangi tashkil etilgan Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi, bu sohada asosiy muvofiqlashtiruvchi organ sifatida, o'tgan yilda qabul qilingan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va yanada rivojlantirish dasturi bajarilishini qat'iy nazoratga olishi, uning ijrosi natijalari to'g'risida Hukumatga muntazam ravishda axborot berib borishi zarur.

Bu borada "Elektron hukumat" tizimini, shu jumladan, boshqaruv jarayonlari, shuningdek, biznes sohasiga va fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini shakllantirish konsepsiyasi va kompleks dasturini ishlab chiqishni jadallashtirishga, Axborot tizimlarining idoralararo va idoraviy komplekslarni integratsiya qiladigan milliy tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim".<sup>4</sup>

Yuqoridagi farmonga muvofiq soha oldiga quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- axborotlashtirish sohasida yagona davlat siyosati yuritilishini ta'minlash;
- zamonaviy AKTni joriy etish bo'yicha milliy dasturlar ishlab chiqilishini va amalga oshirilishini ta'minlash;
- axborotni muhofaza qilish va undan foydalanishni ta'minlash;
- umum qabul qilingan xalqaro norma va standartlarga muvofiq sohada qonunchilikni va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2013 yil

- axborot resurslari, axborot tizimlari va tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar va xizmatlar bozorini jadal rivojlanishini ta'minlash;
- telekommunikatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish (infratuzilmalar, mobil, yo'ldoshli aloqa, RT, RE, KPU);
- davlat boshqaruv organlarida va iqtisodiyot sohaslarida AKTdan foydalanishni ta'minlash;
- Davlat axborot resurslari va ma'lumotlar bazasini yagona saqlash va foydalanish tizimini yaratish;
- “elektron hukumat” asosida elektron hujjat aylanishini ta'minlash;
- AKT sohasida investitsiya siyosatini shakllantirishda ishtirok etish;
- Internet tarmog'ining Milliy segmentini shakllantirish, mahalliy veb-resurslarni yaratish;
- mahalliy dasturiy mahsulotlarni rivojlantirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish va ko'mak berish;
- telekommunikatsiya tarmoqlarida, axborot tizimlari va teleradioefirda axborot xavfsizligini ta'minlash;
- kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish;
- turli yo'nalishlarda xalqaro hamkorlik.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aloqa va telekommunikatsiya xizmatlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ushbu talablarni qondirishda aloqa korxonalarining xususan, aloqa operatorlari va internet provayderlari xizmatlarining roli kattadir. Aholiga xizmat ko'rsatish uchun ular xorijdan uskunalar, aloqa qurilmalar, ehtiyot qismlar olib keladilar va ularni ekspluatatsiya qilishga tayyorlaydilar. Ularning faoliyati tavakkalchiliklarga asoslanganligi uchun ma'lum sug'urta turlariga taklif qilmoqdalar. Sug'urta kompaniyalari ushbu ehtiyojlarni inobatga olgan holda turli xil sug'urta turlarini joriy qilib kelmoqdalar Natijada aloqa operatorlari va internet provayderlari sug'urta munosabatlarida bevosita qatnashib kelmoqda.

Aloqa sohasida sug'urta munosabatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ammo aloqa sohasida sug'urta imkoniyatlarining yetarlicha

o'rganilmaganligi va imkoniyati bor sug'urta turlarining joriy etilmaganligi hamda bir qator muammolarning mavjudligi ushbu mavzudagi bitiruv malakaviy ishnining tanlanishiga sabab bo'ldi. Aloqa sohasida OAJ "ALSKOM" SK turli ko'rinishdagi sug'urta xizmat turlarini taklif qilmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** O'zbekistonda aloqa operatorlari va internet provayderlarini sug'urta munosabatlarining holatini tahlil qilish va sug'urta munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar berish.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida sug'urta munosabatlarining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish;
- Milliy sug'urta bozorining hozirgi holati va uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish;
- Aloqa operatorlari va internet provayderlari faoliyatida mavjud sug'urta xizmat turlarini o'rganish;
- Aloqa operatorlari va internet provayderlari faoliyatida sug'urta imkoniyatlarini tahlil etish;
- Aloqa operatorlari va internet provayderlari faoliyatida sug'urta munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berish;

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida** sug'urta faoliyati bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi OAJ "ALSKOM" SK olingan.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** sifatida aloqa operatorlari va internet provayderlar mulkiy manfaatlarini sug'urtalash sohasida vujudga keladigan munosabatlarni o'rnatish olingan.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi tarkibiy jihatdan kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

# **I. MILLIY SUG‘URTA BOZORIDA SUG‘URTA MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH ASOSLARI**

## **1.1. Milliy sug‘urta bozorida sug‘urta munosabatlarini tashkil etish asoslari**

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq yangicha bozor mexanizmining shakllanish davri boshlandi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida zaruriy ichki infratuzilmani yaratishni davr talabiga aylantirdi. Xususan, respublika axborot – kommunikatsiya tizimidagi korxonalar va tashkilotlarning funksional faoliyatini barqaror yuritilishini ta‘minlash, ularni tasodiflar va baxtsiz hodisalar oqibatida yetkazilayotgan ziyonlarni tez va samarali bartaraf etish hamda tizimda qo‘shimcha investitsion resurslarni yaratish zaruriyati tug‘ildi. Ko‘rilgan zararni qoplashning eng oddiy shakli sug‘urtadir.

Sug‘urta faoliyati bozor munosabatlarining eng muhim unsuriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuning 3 – moddasida sug‘urtaga quyidagicha ta‘rif berilgan:

“Sug‘urta deganda yuridik va jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

Sug‘urta faoliyati deganda sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining sug‘urtani amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyati tushuniladi.”

Sug‘urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida ijtimoiy kafolatni ta‘minlaydi hamda shartnomaviy majburiyat va tariflar orqali turli sug‘urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot sub’ektlari manfaatlarining himoyasini ham o‘z zimmasiga oladi.

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zararlarni qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi hamda rivojlandi. Shunday anglashilgan zarurat – aniq sug'urta manfaatlari negizida sug'urta munosabatlari yuzaga keldi.

Sug'urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllaridan qat'iy nazar, sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir. Ta'kidlash lozimki, sug'urta munosabatlari – murakkab va keng qamrovli moliyaviy – pullik iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular yuzaga kelishi uchun o'zaro bog'liq shart – sharoit majmuasi mavjudligi ham muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sug'urta munosabatlarini, sug'urta bozorini rivojlantirish va tizimni takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda sug'urta xizmati bozorini rivojlantirish, shuningdek aholining keng qatlamlari va xo'jalik sub'ektlarini sug'urtada ishtiroklarini rag'batlantirish maqsadida sug'urta kompaniyalari va iste'molchilarga qulay sharoitlar yaratilgan. Sohaga bo'lgan e'tibor tarmoqda faoliyat olib borayotgan kompaniyalar soni o'sib borayotganligi ko'rsatmoqda. Ayni payda respublikamizda 30 dan ortiq sug'urta kompaniyalar va ularning filiallari faoliyat olib borayotgani hamda aholiga 200 dan ortiq sug'urta xizmatlarini taklif etayotgani bunga dalildir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rni bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil falokatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning

shakllanishiga sabab bo‘ldi. Endilikda har bir xo‘jalik ob‘ektining tashkilotchisi o‘z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo‘lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko‘rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug‘urtaga bo‘lgan talab kuchaya boshladi. Sababi Prezidentimiz aytganlaridek: “Shu narsa aniqki, bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar ... sug‘urta tizimisiz samarali ishlash, investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanish, kredit olish imkoniyatiga ega emas”.<sup>5</sup>

Sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatiga uning funksiyalari mos keladi. Ular sug‘urtani moliya tizimining bir bo‘g‘ini sifatida xususiyatlarini oydinlashtirishning tashqi shakllari hisoblanadi.

Sug‘urtaning to‘rtta funksiyasi mavjud:

1. Tavakkalchilik
2. Oldini olish
3. Jamg‘arma
4. Nazorat

Asosiysi tavakkalchilik funksiyasi hisoblanadi, chunki sug‘urtaviy tavakkal zarar ehtimolligi sifatida talofat ko‘rgan xo‘jaliklarga pullik yordam ko‘rsatish bo‘yicha sug‘urtaning asosiy yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liq. Aynan tavakkalchilik funksiyasining amal qilish doirasida sug‘urta ishtirokchilari o‘rtasida bo‘lishi mumkin bo‘lgan sug‘urta hodisalari oqibatlari bilan bog‘liq pul shaklidagi qiymatning qayta taqsimlanishi ro‘y beradi.

Oldini olish funksiyasi sug‘urta fondi mablag‘larining bir qismi hisobidan sug‘urta tavakkalchiligini kamaytirish bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan.

---

<sup>5</sup> Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifamiz. Prezident I. Karimovning 1999 yilda mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2000 yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2000 yil, 16 fevral

Hayot sug'urtasida sug'urta kategoriyasi kredit kategoriyasi bilan hayotni ma'lum muddatgacha sug'urtalash shartnomalari bo'yicha mablag'larni jamg'arishda ancha yaqinlashadi. Hayot sug'urtasi orqali pul mablag'larini jamg'arish oilaviy sharoitda sug'urtaviy himoyaga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liqdir. Shu bilan sug'urta jamg'arish funksiyasini ham bajarishi mumkin.

Sug'urtaning nazorat funksiyasi sug'urta fondini qat'iy maqsadli shakllantirilishi va uning mablag'laridan to'g'ri foydalanishdan iborat. Mazkur funksiya yuqoridagi uch spetsifik funksiyalardan kelib chiqadi va konkret sug'urta munosabatlarida ular bilan birga namoyon bo'ladi. Nazorat funksiyasiga mos ravishda qonunchilik va instruktiv hujjatlar asosida sug'urta amallarini to'g'ri bajarilishi ustidan moliyaviy sug'urta nazorati amalga oshiriladi.

Sug'urta ixtisoslashtirilgan sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'lishi mumkin. Ularning faoliyat doirasi ichki, tashqi yoki aralash sug'urta bozorlarini qamrab olgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga rivojlangan sug'urta bozori sharoitida ham davlat ichkarisida, ham chetda amalga oshirilishi mumkin. Bu sug'urtaning tashkiliy turkumlanishidir. Ammo, sug'urta munosabatlarining mazmuni sug'urta ob'ekti va xavf – xatar turlari bo'yicha turkumlanishi yordamida namoyon bo'ladi.

Sug'urta sug'urtalanuvchilarning turli toifalarini qamrab oladi. Uning shartlari sug'urta ma'suliyatining hajmlari bo'yicha farq qiladi. U qonun kuchida va ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Sug'urta munosabatlarining turlichaligini tartibga solish va o'zaro bog'liq yagona tizimni shakllantirish uchun sug'urtani turkumlash zarurdir.

Sug'urtaning mohiyatini to'laqonli namoyon qilish, u bo'yicha maqsad va manfaatlarni yetarlicha aks ettira olishga sug'urta kategoriyasini ob'ektlari bo'yicha turkumlash xizmat qiladi. Sug'urtani ob'ektlari bo'yicha turkumlanishi natijasida bo'g'inlar hosil bo'ladi. Barcha bo'g'inlar shunday joylashganki, har bir navbatdagi bo'g'in avvalgisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yuqori bo'g'in sifatida – soha, o'rta bo'g'in – tarmoq, quyi bo'g'in – sug'urta turlari hisoblanadi.



Sug'urtani sohalarga bo'lish asosida ularning ob'ektlari bo'yicha farqlanishi yotadi. Bu omilga mos ravishda barcha sug'urta munosabatlari mazmuni bo'yicha to'rtta sohaga bo'linadi:

1. Mulkiy sug'urta.
2. Fuqarolar hayot darajasi sug'urtasi.
3. Javobgarlik sug'urtasi.
4. Tadbirkorlik tavakkalchilik sug'urtasi.

Mulkiy sug'urtada ob'ekt bo'lib moddiy qiymatliklar hisoblanadi; fuqarolar hayot darajasi sug'urtasida – ularning hayoti, sog'lig'i, mehnatga layoqati; javobgarlik sug'urtasida ob'ekt bo'lib sug'urtalanuvchining turli javobgarliklari, ma'suliyatlari, majburiyatlari hisoblanadi; tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida esa, ob'ekt vazifasini tadbirkorlik ishlari bo'yicha turli tavakkalchiliklar bajaradi.

Biroq, sug'urtani yuqorida sanab o'tilgan sohalarga bo'linishi korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning sug'urtani amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi aniq sug'urta manfaatlarini ochib bera olmaydi. Bu manfaatlarni aniqlashtirish maqsadida sug'urta sohalarini sug'urta tarmoqlari va turlariga bo'lish zarur.

Mulkiy sug'urta mulkchilik shakli va sug'urtalanuvchilar toifalaridan kelib chiqib, bir nechta tarmoqlarga bo'linadi: davlat korxonalari mulki sug'urtasi, jamoa xo'jaliklari, ijarachilar, shirkatlar. Xissadorlik jamiyatlari va jamoatchilik tashkilotlari mulki sug'urtasi hamda fuqarolar mulki sug'urtasi.

Fuqarolarning hayot darajasi sug'urtasi ikkita tarmoqqa ega: ishchilar, xizmatchilar va jamoa xo'jaliklari a'zolarining ijtimoiy sug'urtasi hamda fuqarolar shaxsiy sug'urtasi. Ba'zi adabiyotlarda fuqarolarning hayot darajasi sug'urtasi shaxsiy sug'urta deb ham ataladi.

Javobgarlik sug'urtasi esa quyidagi tarmoqlarga ega: qarz sug'urtasi hamda yetkazilgan zararni qoplash sug'urtasi. Bu fuqarolik javobgarligi sug'urtasi ham deb yuritiladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida ikkita tarmoq mavjud: daromadlarni bevosita hamda bilvosita yo'qotilish tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Sug'urtalanuvchilarni sug'urtalovchilar bilan sug'urta munosabatlariga kirishishi va sug'urtalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida sug'urta tarmoqlarini konkret sug'urta turlariga bo'lish zarurati paydo bo'ladi.

Mulkiy sug'urtaning bunday konkret turlariga qurilmalar, chorva hayvonlari, ro'zg'or buyumlari, transport vositalari, qishloq xo'jalik ekinlari hosili va boshqa turli xo'jalik kategoriyalari sug'urtasi misol bo'la oladi.

Ijtimoiy sug'urtaning konkret turlariga pensiya va turli nafaqalar sug'urtasi kiradi.

Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urtaning quyidagi turlari amalga oshiriladi: hayotni aralash sug'urtasi, o'lim holati va mehnatga layoqatini yo'qotishdan sug'urtalash, bolalar sug'urtasi, qo'shimcha pensiya sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va boshqalar.

Javobgarlik sug'urtasi bo'yicha – kreditni yoki boshqa qarzlarni qaytara olmaslikdan sug'urtalash, yuqori xavf – xatar manbalari egalarining egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi, xo'jalik faoliyati jarayonida zarar yetkazish holati bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urtasi va boshqalar.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi dastgohlarni to'xtab qolishi, savdodagi to'xtalishlar natijasida zarar ko'rish yoki foyda ololmaslik sug'urtasi, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash tavakkalchiliklari sug'urtasi va boshqa turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchiligida sug'urta sohalari va turlariga ham tushuntirishlar berib o'tilgan. Unga ko'ra sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

- hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda

sugʻurta pullarining sugʻurta shartnomasida koʻrsatib oʻtilgan oshirilgan foizni oʻz ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy toʻlovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

- umumiy sugʻurta (shaxsiy, mulkiy sugʻurta, javobgarlikni sugʻurta qilish hamda hayotni sugʻurta qilish sohasiga taalluqli boʻlmagan boshqa sugʻurta turlari).

Sugʻurta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bogʻliq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sugʻurta sohalari sugʻurta turlariga (klasslariga) boʻlinadi. Sugʻurta turlari (klasslari) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorining 1-ilovasida sugʻurta faoliyatining klassifikatori berilgan boʻlib, unga muvofiq hayotni sugʻurta qilish sohasi 4 ta klassga va umumiy sugʻurta sohasi 17 ta klassga ajratilgan (1 – 2 ilovalar).

Turkumlanishning barcha boʻgʻinlari sugʻurtani amalga oshirish shakllarini qamrab oladi, yaʼni majburiy va ixtiyoriy.

Tomonlarning xohish-irodasiga koʻra amalga oshiriladigan sugʻurta ixtiyoriy sugʻurta hisoblanadi.

Ixtiyoriy sugʻurtaning shartlari tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi. Sugʻurtalanuvchi va sugʻurtalovchining huquqlari hamda burchlari, shuningdek, har bir sugʻurta turining aniq shartlari tegishli sugʻurta shartnomalari bilan belgilab quyiladi.

Ixtiyoriy sugʻurta turlarining umumiy shartlari va uni amalga oshirishning tartiblari sugʻurta qoidalarida oʻz aksini topadi. Ixtiyoriy sugʻurta turlarining qoidalari sugʻurtalovchilar tomonidan qonunchilik talablariga muvofiq tarzda mustaqil ishlab chiqiladi hamda sugʻurta faoliyatini amalga oshirish huquqini olish uchun sugʻurta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qiluvchi organdan litsenziya olish paytida kelishiladi.

Sugʻurtaning ixtiyoriy shakli quyidagi tamoyillar asosida qurilgan.

1. Ixtiyoriy sug'urta qonunchilik asosida va ixtiyoriy ravishda amal qiladi. Qonunchilik ixtiyoriy sug'urtaga tegishli ob'ektlarni va sug'urtaning umumiy shartlarini belgilab beradi. Konkret shartlar esa, sug'urtalovchilar tomonidan ishlab chiqiladigan sug'urta qoidalarini orqali tartibga solinadi.

2. Sug'urtada ixtiyoriy qatnashish to'la holda faqat sug'urtalanuvchilar uchun xarakterlidir. Agar sug'urtalanuvchining xohishi sug'urta qoidalariga zid kelmasa, sug'urtalovchi ob'ektni sug'urta qilishdan bosh tortish huquqiga ega emas. Bu tamoyil sug'urtalanuvchining birinchi talabi bo'yicha sug'urta shartnomasi tuzilishini kafolatlaydi.

3. Ixtiyoriy sug'urtani tanlab qamrab olishi. Barcha shaxslar ham unda ishtirok etish istagini bildiravermaydilar. Bundan tashqari, shartnomalar tuzishda sug'urta shartlari bo'yicha chegaralashlar ham amal qiladi.

4. Ixtiyoriy sug'urta doimo sug'urta muddati bilan chegaralanadi. Bunda muddatning boshlanishi va tugashi shartnomada qat'iy kelishib olinadi. Shundan kelib chiqib, sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi sug'urta holati faqatgina sug'urta davrida sodir bo'lgandagina to'lanadi. Ixtiyoriy sug'urtaning uzluksizligini faqatgina yangi muddatga qayta shartnoma tuzish yo'li bilangina ta'minlash mumkin.

5. Ixtiyoriy sug'urta faqatgina bir martalik yoki davriy sug'urta badallari to'langandagina amal qiladi. Ixtiyoriy sug'urta shartnomasining kuchga kirishi bir martalik yoki birinchi sug'urta badalini to'lanishi bilan asoslanadi. Uzoq muddatli sug'urta bo'yicha navbatdagi badalning to'lanmasligi natijasida shartnomaning amal qilishi to'xtaydi.

6. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta ta'minoti sug'urtalanuvchi istagidan kelib chiqadi. Mulkiy sug'urta bo'yicha sug'urtalanuvchi sug'urta summasini sug'urta bahosi chegarasida belgilashi mumkin. Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urta summasi shartnomada tomonlar kelishuvi orqali belgilanadi.

Majburiy sug'urtalash yurtimiz moliya bozorini rivojlantirish aholining ijtimoiy muhofazasini yanada mustahkamlashda ham katta rol o'ynaydi. Shu bois,

ishonch bilan ayta olamizki, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sugʻurta amaliyoti, xususan, majburiy sugʻurtaning ahamiyati kattadir. Majburiy sugʻurta turlarining keng qamrovligini hisobga oladigan boʻlsak, bu, oʻz oʻrnida sugʻurtaning rivojlanishiga va omma orasida keng koʻlamda tarqalishiga imkoniyat yaratadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida pul mablagʻlarining yetishmaslik muammosini davlat byudjeti mablagʻlarini jalb qilmasdan turib yechish asosiy muammodir. Bunda sugʻurtaning investitsiya faoliyatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taʼkidlaganidek, «inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obʼektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yoʻnalishga aylandi»<sup>6</sup>.

Xorijiy mamlakatlarning sugʻurta bozorida javobgarlikni sugʻurtalashdan yigʻilgan sugʻurta mukofotlari salmoqli oʻrinni egallaydi, shuningdek, javobgarlikni sugʻurtalash uning daromadli turlaridan biridir.

Ularni takomillashtirish orqali sugʻurta tashkilotlari investitsion imkoniyatlari oshishiga erishiladi. Bu, oʻz navbatida, sugʻurta tashkilotlari moliyaviy imkoniyatlarini oshiradi va respublikaning pul mablagʻlariga boʻlgan ehtiyojlarini qisman boʻlsada qondirishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq majburiy sugʻurta amalga oshiriladi. Majburiy sugʻurta turlari, shartlari va uni amalga oshirish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Majburiy sugʻurtani amalga oshirish huquqiga davlat sugʻurta tashkilotlari ega boʻlib kelganlar, biroq Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada

---

<sup>6</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: Oʻzbekiston, 2010. –B. 43.

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ustav kapitali hajmini 500 ming AQSh dollariga teng miqdorga yetkazgan har qanday sug‘urta kompaniyasi litsenziya asosida majburiy sug‘urta bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lgan edilar. Biroq “Sug‘urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31 may 2011 yildagi 1544 – sonli qaroriga muvofiq majburiy sug‘urtalash sohasida sug‘urta kompaniyalarining ustav kapitali 2012 yil 1 iyuldan 5000 yevro deb belgilandi. 2014 yil 1 iyuldan boshlab esa majburiy sug‘urta sohasida sug‘urta kompaniyalarining ustav kapitali 6000 ming yevro deb belgilanadi. Shu bilan birga sug‘urta tashkilotlari majburiy sug‘urta qilinishi lozim bo‘lgan ob’ektlarning but saqlanishi ustidan nazorat o‘rnatishga haqlidirlar.

Majburiy sug‘urta sug‘urta bo‘lgan ijtimoiy (umumdavlat) talabni aks ettiradi. Davlat qonunchilik asosida ushbu maqsadlar uchun sug‘urtaning majburiylikini o‘rnatadi. Buning natijasi o‘laroq, tegishli majburiy sug‘urta turi haqidagi qonun qabul qilinadi. Shunday qilib, majburiy sug‘urta – qonun kuchidagi sug‘urtadir.

Majburiy sug‘urta, sug‘urtani tashkil etish shakli sifatida, umumiylik sifatidagi muhim xususiyatga egadir. Majburiy sug‘urtaning ob’ekti hayot, sog‘lik, mol-mulk, fuqarolik javobgarligi bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy manfaatlar hisoblanadi.

Majburiy sug‘urtani ajratib turuvchi tamoyillar quyidagilar.

1. Majburiy sug‘urta qonun yo‘li bilan o‘rnatiladi. Shunga mos ravishda sug‘urta qildiruvchi tegishli ob’ektlarni sug‘urtalashga, sug‘urtalovchilar esa, sug‘urta hodisalari ro‘y berganda tegishli sug‘urta to‘lovlarini to‘lashga majburdirlar.

Qonunchilik odatda quyidagilarni belgilab beradi:

- majburiy sug‘urtalanishi lozim bo‘lgan ob’ektlar tarkibini;
- sug‘urta javobgarligi hajmini;
- sug‘urta ta’minoti darajasi va me’yorlarini;

- tarif stavkalari miqdorlari va ularni o'rnatish tartibini;
- sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatlarini.

2. Qonunda ko'rsatilgan majburiy sug'urta ob'ektlarini yoppasiga sug'urtaga qamrab olish. Buning uchun sug'urta organlari mamlakatda har yili sug'urtalangan ob'ektlarni, hisoblangan sug'urta badallarini va ularni o'rnatilgan muddatlarda undirilishini hisobga olib boradilar.

3. Qonunda ko'rsatilgan ob'ektlarga majburiy sug'urtaning avtomatik ravishda qo'llanilishi. Sug'urtalanuvchi yangi ob'ekt paydo bo'lganligi haqida sug'urta organlariga xabar berishi shart emas. Bu ob'ekt sug'urta sohasiga avtomatik ravishda qo'shiladi. Navbatdagi ro'yxatga olish davrida hisobga olinadi va sug'urtalanuvchiga to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta badallari ko'rsatiladi.

4. Majburiy sug'urtani sug'urta badallari to'lanishidan qat'iy nazar amal qilishi. Agarda sug'urta qildiruvchi tegishli sug'urta badallarini to'lamagan hollarda, badallar sud orqali undirib olinishi mumkin. Sug'urta badallari to'lanmagan ob'ektga nisbatan sug'urta javobgarligi amal qilaveradi, faqatgina sug'urta badallari bo'yicha qarz va kechiktirilgan kunlar uchun jarima summasi ushlab qolinadi.

5. Majburiy sug'urtaning muddatsizligi. Majburiy sug'urta sug'urtalangan ob'ekt mavjud bo'lgan davrning to'la qismida amal qiladi.

6. Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta ta'minotining me'yorlashtirilishi. Sug'urtaviy baholash va sug'urtaviy qoplash tartibini soddalashtirish maqsadida sug'urta bahosiga nisbatan foizlarda yoki bir ob'ektga so'mlarda sug'urta ta'minotining me'yorlari belgilanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan majburiy sug'urta turlariga quyidagilar kiradi: yo'lovchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; parvozlarda qatnashuvchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; harbiylarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; ko'mir, neft, gaz konlarida ishlovchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; soliq organlari xodimlarining davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; temir yo'l texnika xizmat ko'rsatuvchi va

xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi; auditorlarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi; notariuslarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi va boshqalar.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi sug'urta xizmatlari bozorida rivojlanish imkoniyatlari yaratilayotganligi va mazkur sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yaqin kelajakda sug'urtaning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini sezilarli darajada oshishidan dalolat bermoqda. Bu esa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda, O'zbekiston sharoitida uni yumshatishda yordam beradi.

## **1.2. Aloqa operatorlari va internet provayderlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va ularning manfaatlarini sug'urtalash zarurligi**

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida xizmat ko'rsatish soha va tarmoqlar jadallik bilan rivojlanib bormoqda. 2012-yilda xizmat ko'rsatish sohasi ham yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. Aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi qariyb 15 foizga o'sdi, ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa bugungi kunda 52 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Xususan, so'nggi yillarda aloqa sohasida bir qator ishlar amalga oshilayotganligi tufayli ham ushbu soha yildan yilga rivojlanib bormoqda. Bu jarayonda xizmatlarning yuqori texnologiyalarga asoslangan va bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan turlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Jumladan, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 24,5 foizga, kompyuter dasturlash xizmatlari 18 foizga, texnologik asbob-uskunalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish 17 foizga, moliya-bank xizmatlari 17,6 foizga o'sdi.



Aholini aloqa va axborotga bo‘lgan talabini qondirishda aloqa korxonalarining o‘rni kattadir. Ular orasida aloqa operatorlari va internet provayderlarining o‘rni ham yuqori hisoblanadi. Aloqa operatorlari va internet provayderlarining faoliyati bilan qichqacha to‘xtalib o‘tsak.

Aloqa operatori AKT sohasida xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hamda xalq xo‘jaligi sohaslaridan biri hisoblanadi. Aloqa operatori – Elektr va (yoki) pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. O‘zbekiston Respublikasi “Telekommunikatsiya to‘g‘risida” gi Qonunda telekommunikatsiya operatoriga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Telekommunikatsiya operatori (bundan buyon matnda operator deb yuritiladi) – mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquq asosida telekommunikatsiyalar tarmog‘iga ega bo‘lgan, uning ishlashi, rivojlanishini ta‘minlovchi va telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs”<sup>7</sup>.

Aloqa operatorlarining ishlab chiqarish korxonalaridan farqi shundaki, ulardagi mehnat predmeti ashyoviy bo‘lmaydi. Aloqa operatorlari faoliyatini rivojlanishi mamlakatning milliy daromadini oshirishga va butun xalq xo‘jaligini samarali ishlashiga turtki bo‘ladi. Shu bilan birga, aloqa operatorlari aholi va ishlab chiqarish sohasidagi barcha axborotlarni uzatishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Aloqa operatorlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Noashyoviy xususiyati. Aloqa operatorlari axborot uzatish bilan shug‘ullanadi. Axborot esa noashyoviy xususiyatga ega. Noashyoviy deganda, mahsulot mavjud, lekin uni ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydi.

2. Aloqa xizmatlarini ishlab chiqarish va iste‘mol qilish jarayoni uzluksizdir. Aloqa operatorlarida ishlab chiqarish jarayonida buzilishlarning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bu harakatdagi aloqaning turli sabablarga ko‘ra to‘xtashidir. (chiziqlardagi uzilishlar, stansion qurilma ishidagi buzilishlar, elektr ta‘minotining

---

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Telekommunikatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni 2 – modda asosiy tushunchalari. 1999 – yil 20 avgust.

ishgdan chiqishi va boshqalar). Bu holda ishlab chiqarish jarayoni to‘xtaydi, ya’ni iste’molchi mahsulotni iste’mol qila olmaydi.

3. Aloqa operatorlarida tarmoqning yagonaligi. Shaharlararo ma’lumot uzatish bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonida turli shahar va tumanlarda joylashgan bir necha aloqa korxonalari qatnashadi. Shuning uchun aloqa sohasida yagona texnik siyosat yuritish va aloqani barcha ko‘rinishlari bo‘yicha yagona ekspluatatsion qoidalarni kiritish juda zarurdir. Ishlab chiqarish jarayonida bir nechta aloqa korxonalarining qatnashishi sababli pullik xizmatlardan tushgan daromadlarushbu korxonalar orasida qayta taqsimlanadi.

4. Aloqa xizmatlarida bo‘lgan talab yuklamasining notekis taqsimlanganligi. Aloqa xizmatlariga ma’lum vaqt mobaynida (soat, kecha, kun, hafta, oy, yil) tushayotgan yuklama notekis taqsimlangan bo‘ladi. Bu xususiyat aholining turmush tarzi va xalq xo‘jaligining ishlash jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir.

Aloqa operatorlaridan tashqari uyali aloqa operatorlari ham mavjud. Uyali aloqa – eng tez rivojlanadigan barcha aloqa xizmatlari bozori hisoblanadi. Aynan mobil aloqa operatorlari ham investorlarni, ham boshqaruv organlarining diqqatini jalb qiladi. Uyali aloqa operatorlari bir qator xizmatlar ko‘rsatadi. Ular quyidagilar:

- so‘zlashuv aloqalar;
- rouming;
- qisqa matnli xabarlarni uzatish va qabul qilish (SMS);
- multimediyalari xabarlarni uzatish va qabul qilish (MMS);
- Internet xizmatlari;
- Videoqo‘ng‘iroq xizmatlar va boshqa bir qator aloqa xizmatlar ko‘rsatiladi.

Bugungi kunda 2013 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, operator va provayderlarning umumiy soni 930 tani tashkil etadi.<sup>8</sup> Mamlakatimizda milliy operator sifatida “O‘zbektelekom” AK va qaraladi. “O‘zbektelekom” AK ga

---

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlar Qo‘mitasining sohani rivojlanish ko‘rsatkichlari.

qarashli Toshken telefon tarmog‘i (TSHTT) ham aloqa operatori sanaladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 4 dona uyali aloqa operatorlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

1. GSM standartidagi operatorlar:

- Beeline savdo belgisi ostidagi “UNITEL” MCHJ;
- Ucell savdo belgisi ostidagi “COSCOM” MCHJ xorijiy kompaniyasi;

2. CDMA 2000 1 standartidagi operatorlar:

- Uzmobil “O‘zbektelekom” AK filiali;
- “Perfectum Mobile” savdo belgisi;

Aholini internetga bo‘lgan talabini qondirishda internet provayderlarning o‘rni kattadir. Internet provayder ingliz tilidan olingan bo‘lib, internet service provider, qisqartmasi ISP – internet xizmatlari ta‘minlovchi degan ma‘noni anglatadi. Internet provayder – Internet tarmog‘iga kirish va boshqa Internet aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi sub‘ektdir. Internet provayder – foydalanuvchilarga Internetdan erkin foydalanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniya. O‘zbekiston Respublikasi “Telekommunikatsiya to‘g‘risida” gi Qonunda telekommunikatsiya provayderiga ham quyidagicha ta‘rif berilgan: “Telekommunikatsiya xizmatlari povayderi (bundan buyon matnda provayder deb yuritiladi) – foydalanuvchilarga operator tarmog‘i orqali tijorat asosida telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs”<sup>9</sup>. Internet provayderlar asosan quyidagi xizmatlar ko‘rsatadi:

- Keng polosali internet tarmog‘iga kirish;
- Internetga kommutatsion kirish;
- Simsiz Internet xizmatlari;
- Internet xosting xizmatlari
- Elektron pochta va virtual pochta tarmog‘ini saqlash;
- Virtual serverlarni ijaraga berish va boshqa Internet xizmatlarini ko‘rsatadi.

---

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Telekommunikatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni 2 – modda asosiy tushunchalari. 1999 – yil 20 avgust.

Internet provayderlar ham maxsus litsenziya asosida faoliyat yuritadilar. Yurtimizda bir qator internet provayderlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

- Biznesni rivojlantirish markazi;
- Uzonline;
- Sarkor telekom;
- Sharq telekom;
- East telekom;
- TPS;
- Comnet.uz;
- Turontelekom;
- Soho;
- Super iMax;
- Evo;
- Net – city;
- Albatros;
- DostLink va boshqalar;

Operatorlar va provayderlarning huquq va majburiyatlar O‘zbekiston Respublikasi “Telekommunikatsiya to‘g‘risida” gi Qonunda belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra operatorlar va provayderlar quyidagi huquqlarga ega:

- foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish;
- foydalanuvchilar telekommunikatsiyalardan foydalanishning belgilangan qoidalarini buzgan taqdirda ularga xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish;
- yuridik va jismoniy shaxslarning aybi bilan yuzaga kelgan zararlarni qoplattirish;
- yuridik va jismoniy shaxslarning noqonuniy xatti – harakatlari ustidan qonun hujjatlariga muvofiq shikoyat qilish.

Operatorlar va provayderlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Operatorlar va provayderlar quyidagilarga majburdirlar:

- telekommunikatsiya sohasidagi faoliyatni litsenziyadagi shartlarga va belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshirish;
- ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati belgilangan standartlar, qoidalar va normalarga muvofiq bo‘lishini ta‘minlash;
- telekommunikatsiya tarmoqlari orqali uzatiladigan telefon so‘zlashuvlari, telegraf va boshqa xabarlar sir tutilishiga rioya qilish;

- xizmatlar ko'rsatish shartlari va tartibi to'g'risidagi, shu jumladan telekommunikatsiya xizmatlari tariflarining o'zgarganligi to'g'risidagi batafsil axborotni foydalanuvchilarga o'z vaqtida taqdim etish;

- telekommunikatsiya xizmatlar o'rsatish to'g'risidagi shartnomalarning bajarilmaganligini yoki lozim darajada sifatli xizmat ko'rsatilmaganlik oqibatida foydalanuvchilarga yetkazilgan zararlarni qonun hujjatlariga muvofiq qoplash.

Operatorlar va provayderlar zimmasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda aholining AKTga bo'lgan talab yildan – yilga oshishi natijasida aloqa operatorlar va provayderlar ushbu talablarni qondirish maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Xususan, uyali aloqa operatorlari va internet provayderlar tomonidan har xil turdagi tarif rejalar ishlab chiqarmoqdalar, qo'shimcha xizmat turlarini joriy qilinmoqda. Raqobat muhitida aloqa va ma'lumotlar uzatish sifatini oshirish uchun operator va provayderlar tomonidan turli uskunalar, terminallar olib kelinmoqda, baza stansiyalari o'rnatilmoqda, optik tolali kabel liniyalari yotqilizmoqda, port sig'implari kengaytirilmoqda. Aloqa operatori sifatida "O'zbektelekom" AK amalga oshirilgan ishlar to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tsak.

"O'zbektelekom" AK tomonidan 2012 yilda 292,05 sig'imga ega kommutatsiya stansiyalarini modernizatsiya qilish maqsadida telekommunikatsiya uskunalari keltirilib, montaj ishlari yakunlandi. Xalqaro paketli kommutatsiya markazini kengaytirish va modernizatsiya qilish natijasida XPKMning o'tkazish qobiliyati 40 Gbit/s gacha yetkazildi. Xalqaro abonent tarmoqlaridan foydalanish umumiy tezligi 7780 Mbit/s yetkazildi. Buning natijasida operator va provayderlarga Internet xizmatlari uchun belgilangan tarif 2012 yil boshiga nisbatan 25 foizga kamaytirilgan. "Uzmobile" filialining CDMA – 450 simsiz tarmog'i bilan qamrab olish darajasi 58 fozidan 71, 2 foizgacha kengaytirish imkoniyatini beradigan 121 baza stansiyalari o'rnatildi, natijada abonentlarga, shu jumladan qishloq joylardagi foydalanuvchilarga Internet xizmatlarini ko'rsatish

imkoni yaratildi. Mobil aloqa tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha mobil aloqa kompaniyalari tomonidan ma'lumotlar uzatish xizmatlarini ko'rsatish, ya'ni 3G va 4G tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 20 yanvardagi PQ-1041 sonli "Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarni yanada rivojlantirish qo'shimcha choralari to'g'risida"gi Qarorini amalga oshirish doirasida CDMA-450 mobil aloqa tarmog'ini rivojlantirish maqsadida 2010 yilda tarmoq qamrab olish zonasini kengaytirish va EV-DO-texnologiyasini tatbiq etish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. EV-DO (Evolution-Data Only) – CDMA standart mobil aloqa tarmoqlarida foydalaniladigan ma'lumotlar uzatish texnologiyasi. Bu 3,1 Mb/s gacha tezlik bilan yuqori tezlikda ulanishni ta'minlovchi uchinchi avlod (3G) mobil aloqa tarmoqlari texnologiyasi.

2011 yilda "Uzmobile" filiali tomonidan 7 ta qo'shimcha tayanch stansiyalarini o'rnatish yo'li bilan ishonchli qamrab olish: Toshkent viloyatida (Parkent tumani, Mirzo Ulug'bek, Ertosh qishloqlari, Toshkent-O'sh yo'nalishida 136 km.lik A-374 trassasi), Namangan viloyati (Toshkent – O'sh yo'nalishi bo'yicha 164 km A-374 trassasi, «Qamchiq» dovoni), Qashqadaryo viloyati (Qamashi tumani, Duob qishlog'i, Shahrisabz tumani Xisorak qishlog'i), Qoraqalpog'iston Respublikasi (Qo'ng'iro't tumani, Buston) zonasini kengaytirish ishlari amalga oshirildi.

2011 yilda barcha mavjud va bo'lajak abonentlar manfaatlarini e'tiborga olib, statsionar va mobil aloqa tariflari ancha arzonlashtirildi, mobil Internet va ma'lumotlar uzatish (VPN) xizmatlari tariflari yangilandi. 2011 yil 1 avgustdan mobil va statsionar aloqa xizmatlariga yangi tariflar tasdiqlandi, 15 oktabrdan esa mobil Internet va ma'lumotlar uzatish xizmatlariga tariflar ancha arzonlashtirildi. 2011 yil davomida mobil aloqa va mobil Internet foydalanuvchilarini oshirishga qaratilgan qator aksiyalar o'tkazildi.

2011 yilda "Uzmobile" filialining mavjud va doimiy kengayib boruvchi dilerlik tarmog'ida yangi abonentlarni ulash bilan birga abonentlik xizmatlarini

taqdim etish va mavjud abonentlardan to'lovlar qabul qilish ishlari amalga oshirildi. Rebranding o'tkazilgandan so'ng umumiy hisobda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha turg'un telefoniyaga, Internetga keng polosali ulanish hamda CDMA-450 standarti tarmog'iga ulanish xizmatlarini ko'rsatuvchi 50 dan ortiq zamonaviy «yagona oyna» tamoyili bo'yicha ishlaydigan savdo ofislari ochildi. «Yagona oyna» tamoyili bo'yicha ishlaydigan yangi savdo ofislarining ishga tushirilishi CDMA-450 standartidagi tarmoqqa ulanishlar soni o'sishiga yaxshi ta'sir ko'rsatdi, brendning ommaviylashuv darajasi oshdi va abonentlarning umuman kompaniyaga hurmatlari oshdi.

Marketing strategiyasi doirasida 2011 yil sentabr oyida Kompaniyaning UZONLINE va UZMOBILE savdo belgilari brendi ostida taqdim etiladigan xizmatlariga tariflar qayta ko'rib chiqildi. 2011 yil oxirigacha yuqorida ko'rsatilgan xizmatlarga tariflar yana ikki marta qayta ko'rib chiqilib, ancha arzonlashtirildi. Kompaniyaning faol marketing strategiyasi natijasida barcha xizmat turlari va QXT bo'yicha 2011 yilda xDSL va FTTx texnologiyalari bo'yicha keng polosali ulanish xizmati abonentlari umumiy soni 73 336 raqamni tashkil etdi va yil boshiga nisbatan 125 foizga oshdi. Ushbu xizmat turi bo'yicha daromadning oylik o'sishi 2011 yil yanvar oyiga nisbatan 2011 yil dekabr oyida 203 foizni tashkil etdi.

Kompaniya mobil aloqa abonentlari sonini oshirib bormoqda. Yil yakuni bo'yicha «O'zbektelekom» AK «Uzmobile» filiali CDMA-450 standartida mobil aloqa foydalanuvchilari soni 94110 abonentni tashkil etdi va 2011 yil boshiga nisbatan 1,84 barobarga oshdi, 2011 yil boshiga nisbatan o'rtacha oylik daromadning o'sishi 168 foizni tashkil etdi.

2011 yil avgust oyida mijozlar bazasini qo'llab-quvvatlashni ta'minlash va UZONLINE va UZMOBILE savdo belgilari xizmatlaridan foydalanuvchi Kompaniya abonentlaridan tushgan murojaatlarni qabul qilish va ishlab chiqishni ta'minlovchi yagona Mijozlarni Qo'llab-quvvatlash xizmati (MQQX) ishga tushirildi. MQQX tomonidan xizmatlarni texnik qo'llab-quvvatlash (ulanish,

sozlash bo'yicha muammolar va shu kabilar) masalalari bo'yicha abonentlarning murojaatlarini qabul qilish va ishlab chiqish ham amalga oshiriladi. Buyurtmalarni hisobga olish va nazorat qilish elektron tizimi orqali buyurtmalar, arizalar barcha turlarini, shikoyatlarni ishlab chiqish va nazorat qilish bo'yicha ishlar yo'lga qo'yildi. MQQX mutaxassisleri tomonidan abonentlar buyurtmalarining bajarilishidan qoniqishlari darajasini baholash uchun abonentlar bilan nazorat uchun qayta aloqani ta'minlash bo'yicha doimiy ishlar olib borilmoqda.

Servis sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2013 yil yakuniga qadar jami 18 ta yangi UZTELECOM savdo ofislari va texnik-xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish rejalashtirilgan

Keng polosali telekommunikatsiya xizmatlari bo'yicha

- Joriy yilning 1-chorak yakuni bo'yicha xDSL va FTTx texnologiyalari bo'yicha keng polosali ulanish xizmati mijozlari umumiy soni 126 962 raqamni tashkil etib, mijozlar soni yil boshiga nisbatan 15 115 taga, ya'ni 14% oshgan.
- Hisobot davrida UZONLINE savdo belgisi ostida ko'rsatilayotgan internet xizmatlaridan olingan daromad hajmi 10,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88 % ga oshgan. Har bir mijozdan olinadigan o'rtacha oylik daromad 29 821 so'mni tashkil etmoqda.

CDMA-450 standartidagi mobil aloqa xizmatlari bo'yicha

- Joriy yilning 1-chorak yakuni bo'yicha UZMOBILE savdo belgisi ostida ko'rsatilayotgan mobil aloqa xizmati mijozlari umumiy soni 231 172 raqamni tashkil etdi va ushbu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 39 282 taga, ya'ni 20 % ga oshgan.
- Mobil aloqa xizmatlari bo'yicha hisobot davrida 6,92 mlrd. so'm daromad olinib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 131 % ga oshgan. Har bir mijozdan olinadigan o'rtacha oylik daromad 10 529 so'mni tashkil etmokda.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, aloqa operatori hamda provayderlar yuridik shaxs maqomiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt



sanaladi. Ularning faoliyati risklarga asoslangan. Aloqa operator va internet provayderlarining quyidagi risk turlari mavjuddir:

- axborot risklar;
- abonentlar sonining kamayishi bog‘liq risklar;
- investitsiyani qobiliyatini kamayishi bilan bog‘liq risklar;
- mol – mulkini yo‘qolishi;
- moliyaviy risklar;
- elektron uskunalarning ishdan chiqishi yohud shikastlanishi;
- litsenziya amal qilinishi to‘xtatilishi va hokazo.

Yuqoridagi risklarni kamaytirish uchun aloqa operatorlar va internet provayderlar moliyaviy zaxira to‘plashi yohud sug‘urta munosabatlariga kirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Risklarini boshqarish usullari quyidagilardir:

- mablag‘ hamda AKT vositalari zaxiralarini yaratish;
- me‘yorlashtirish choralarini ko‘rish (standartlashtirish, sertifikatlar, litsenziyalash);
- Sug‘urtalash.

Agar XX asrni sanoat asri bo‘lgan bo‘lsa, XXI asrni axborot asridir. Hozirgi kunda uskunalarning qiymatidan ham ulardagi saqlaydigan va qayta ishlaydigan axborotlarning qiymati yuqori baholanadi. Xatolik sodir bo‘lishi, ishdan chiqishi yoki uchinchi shaxslarning g‘arazli xatti – harakatlari natijasida bahosi yuqori bo‘lgan axborot yo‘qolishi mumkin. Masalan, agar virus “hujumi” natijasida mijozning serverdagi ma’lumotlari yoki billing tizimidagi ma’lumotlari bazasi yo‘qolganda, asosiy zarar noashyoviy material hisoblanadi. Natijada uskunaning qiymati ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Telekommunikatsiya kompaniyalari uchun axborot risklaridan ko‘rilgan zararni qoplashda O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari tomonidan maxsus sug‘urta turi ishlab chiqilmaganidir. Telekommunikatsiya kompaniyalarining asosiy mulki axborot hisoblanganligi uchun, sug‘urta kompaniyalari axborot risklaridan zararni qoplash uchun maxsus

sug'urta dasturini ishlab chiqishlari lozim. Ushbu dasturda axborot mulk turi sifatida qaraladi. Ushbu axborotlar quyidagilar bo'lishi mumkin: billing tizimi, ma'lumotlar bazasi, dasturiy ta'minotlar, internetga kirish.

Axborot risklari tarkibi quyidagilardir:

- axborotning xodimlar va raqobatchilar tomonidan xufyona o'g'irlanishi bilan bog'liq risklar;
- axborot uzatish kanallaridagi texnik nosozlik natijasida axborot yo'qolishi bilan bog'liq risklar.

Axborot risklarining quyidagi turlari mavjud:

- viruslar ta'siri;
- kompyuter hujumlari ya'ni g'arazli shaxslarning ta'siri;
- korxonada xodimlarining nojo'ya xatti – harakatlari natijasida yetkazilgan zararlar;
- korxonada sirlari va maxfiy ma'lumotlarni o'g'irlash natijasida yetkazilgan ziyonlar;
- axborot texnik vositalari va tizimlarini o'rnatish, yaratish va ishlatishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar oqibatida yetkaziladigan ziyonlar;
- turli xil axborot dasturlarining ishdan chiqishi oqibatida yetkaziladigan zararlar va hokazo.

Axborot risklaridan sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin axborot tizimlarini kompyuter hujumlaridan ya'ni g'arazli shaxslarning ta'siridan, korxonada sirlari va maxfiy ma'lumotlarni o'g'irlash natijasida yetkazilgan ziyonlardan himoyalanganlik darajasini ekspert baholash o'tkaziladi. Bu shartnoma bo'yicha axborotning sug'urta qiymatini va mukofot pulini hisoblash uchun kerakdir. Ekspert baholash bilan maxsus tashkilotlar shug'ullanishi mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlarida har yili axborot hujumlaridan zarar 100 mlrd AQSH dollar yuqori baholanadi, G'arbiy Yevropada esa 30 mlrd AQSH dollar deb baholanadi.

---

<sup>10</sup> Finassist Insurance and credit broker kompaniyasining ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Aloqa operator va internet provayderlarining mulk tarkibiga elektron aloqa uskunalari kiradi. Bular ishlab chiqarishning asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu uskunalari orqali ma'lumotlar qabul qilinadi, saqlanadi, ishlov beriladi va uzatiladi. Bular murakkab tuzilishga ega bo'lganligi uchun elektron uskunalarning risk darajasi yuqori bo'ladi. Bundan tashqari bunday uskunalari xodimlarning nojo'ya xatti – harakatlari yoki uchunchi shaxslarning g'arazli harakatlari natijasida ishdan chiqishi, yong'in kelib chiqishi, avariya holatlari, turli tabiiy ofatlar natijasida buzilishi va boshqa hodisalar bo'lish ehtimoli mavjud. Shunday ekan yuqoridagi risklarni sug'urta qilish orqali operator va provayderlarning mulkiy manfaatlarini himoyalangan hisoblanadi. Elektron uskunalarni sug'urtalashda sug'urta hodisasi ro'y berganda ularni bozor bahosi bo'yicha, qoldiq qiymat bo'yicha, ularni sozlash va dasturiy ta'minot o'rnatish xarajatlari hisobga olinadi.

Xullas, aloqa operator va internet provayderlari faoliyati katta tavakkalchiliklarga asoslanganligi sababli ularning manfaatlarini sug'urta qilish yo'li bilan sug'urta munosabatlarni rivojlantirish lozim bo'ladi.

## **II. ALOQA OPERATORLARI VA INTERNET PROVAYDERLARI FAOLIYATIDA SUG‘URTA MUNOSABATLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI**

### **2.1. Milliy sug‘urta bozorining hozirgi holati tahlili**


Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga ta’sir ko’rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishi sabab bo’ldi. Endilikda har bir xo’jalik ob’ektining tashkilotchisi o’z ixtiyoridagi mol – mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarni natijasida yetkazilishi mumkin bo’lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko’rishga ham intilmoqda. Sug‘urtaga bo’lgan talab bozorda raqobatbardoshligini oshiradi va sug‘urta korxonalarining o’rnini belgilaydi. Bozorda sug‘urta korxonalari ularning to’lov qobilyatlari, moliyaviy barqarorligi va samaradorlik ko’rsatkichlariga qarab mavqei belgilanadi. Bu ko’rsatkichlarda sug‘urta to’lovlari, mukofotlari, sug‘urta polislari hajmi, sug‘urta sig‘imi kabi iqtisodiy kategoriyalar orasidagi munosabat o’z aksini topadi. Ushbu bobda biz bir qator sug‘urta atamalaridan foydalanamiz.

Sug‘urta to’lovi – sug‘urta tarifi asosida hisoblangan sug‘urta badali hisoblanadi. Sug‘urta to’lovi sug‘urtalangan mol – mulkning xususiyati va egaligiga qarab bir yoki necha ob’ekt bo’yicha hisoblanishi mumkin.

Sug‘urta mukofoti (badali) – sug‘urta summasiga nisbatan belgilangan sug‘urta tarifi bo’yicha pul to’lovidir. Bu to’lov sug‘urtalanuvchi tomonidan to’lanib, sug‘urta fondini shakllantirishga yordam beradi. Sug‘urta mukofotlari va sug‘urta to’lovlari sug‘urta bozorinig eng muhim indikatorlari hisoblanadi. Shu bois mazkur ko’rsatkichlar dinamikasi ko’p jihatdan mamlakatda sug‘urta sohasi ahvoli va rivojlanishini yaqqol namoyish etishi mumkin.

O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorida 2012 yil 1 yanvar holati bo‘yicha 37 ta sug‘urta kompaniyalari, 959 ta sug‘urta kompaniyalar filiallari, 7862 ta sug‘urta agentlari, 3 ta sug‘urta brokerlari, 4 ta assistant, 14 adjaster va syurveyerlar, 2 ta aktuarlar mavjud. Shulardan 4 tasi (“Hamkor sug‘urta” MCHJ, “Xalq sug‘urta” MCHJ, “DD General Insurance” MCHJ, “Gross Insurance” MCHJ) sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziya olgan yangi tashkil etilgan sug‘urta kompaniyalaridir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida sug‘urtaning ahamiyati ortib bormoqda. Sug‘urta kompaniyalari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari miqdori yilgan – yilga kengaymoqda va sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta fondi shakllanmoqda. Sug‘urta xizmatlari bozorida sug‘urta mukofotlari va to‘lovlari yildan – yilga ko‘payib bormoqda (2.1.1 – rasm).




**2.1.1 – rasm. Sug‘urta to‘lovlari va mukofotlarining o‘shish dinamikasi (mlrd so‘m)<sup>11</sup>**

<sup>11</sup> UzReport axborot agentligining [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) –internet sahifasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi diagrammada 2007 – 2012 yil ma’lumotlarini o’zida mujassam etgan. 2007 yilda sug’urta to’lovlari 8,7 mlrd so’mni tashkil etgan bo’lsa, 2011 yilga kelib 45,1 mlrd so’mni tashkil etgan. Sug’urta mukofotlari ham yildan yilga oshganini ko’rishimiz mumkin. 2007 yil sug’urta mukofotlari 73,6 mlrd so’m bo’lgan bo’lsa, 2012 yilda 285,9 mlrd so’m sug’urta mukofotlari yig’ilgan. Bunga sabab sug’urtaga bo’lgan talabning oshishi va 2008 yilda “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida”gi, 2009 yilda “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek, 2008 yil 10 dekabrda “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar haqidagi 271-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinganligidir.

Sug’urta mukofotlari va sug’urta to’lovlari orasidagi nisbat sug’urta mukofotlarining zararlilik darajasini ifodalaydi. Ya’ni sug’urta mukofotlarining zararlilik darajasi sug’urta mukofotlarining to’lovlarga nisbatini bildiradi. Zararlilik darajasining yillar bo’yicha o’zgarishini ko’rishimiz mumkin (2.1.2 - rasm).




**2.1.2 – rasm. Sug’urta mukofotlarining zararlilik darajasi tahlili (foiz)<sup>12</sup>**

<sup>12</sup> UzReport axborot agentligining [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) –internet sahifasi ma’lumot-lari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


Sug'urta mukofotlarining zararlilik darajasi 2008, 2010, 2011 yillarda o'sganligini ko'rsatayapti. 2007 yilda zararsizlik darajasi 11,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilga kelib 17,6 foizga o'sgan. 2009 va 2012 yillarda zararsizlik darajasi pasaygan bo'lsa, 2010 va 2011 yillarga kelib 15,7 va 20,3 foizga oshgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, jami yil davomida yig'ilgan sug'urta mukofotlarining yuqorida keltirilgan foizlar sug'urta to'lovlariga ketganligini ko'rsatadi.

Ixtiyoriy va majburiy sug'urta yo'nalishi bo'yicha sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari strukturasi 2.1.3 va 2.1.4 – rasmlarda keltirilgan.



**2.1.3 – rasm. Ixtiyoriy va majburiy sug'urta yo'nalishi bo'yicha sug'urta mukofotlari (foiz)<sup>13</sup>**

<sup>13</sup> UzReport axborot agentligining [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) –internet sahifasi ma'lumot-lari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



#### 2.1.4 – jadval. Ixtiyoriy va majburiy sug'urta yo'nalishi bo'yicha sug'urta to'lovlari (foiz)<sup>14</sup>


Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sug'urta mukofot va to'lovlaridan ixtiyoriy sug'urtaning ulushi kattadir. Asosan yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyoriy sug'urta yo'nalishi bo'yicha ko'p sug'urta shartnomalar mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari bilan tuzganlar. 2008 yilgacha mukofot va to'lovlardan majburiy sug'urtaning ulushi 8 – 9 foiz orasida bo'lgan bo'lsa, 2009 yilga kelib 20 – 30 foizni tashkil etgan. Bunga sabab yuqorida aytib o'tilgan majburiy sug'urta bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilinganidir.

Mamlakatimiz sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlarini sug'urta turlari bo'yicha tahlil qilib chiqamiz. "SAIPRO" axborot reyting agentligining TOP-25 loyihasi bo'yicha qatnashgan 21 dona sug'urta kompaniyalari misolida ko'rib chiqamiz. Ular quyidagi sug'urta kompaniyalari: "Agro Invest Sugurta", "ALSKOM", "Asia Insurance", "Asko Vostok", "DD General Insurance", "Euroasia insurance", "Gross Insurance",

<sup>14</sup> UzReport axborot agentligining [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) –internet sahifasi ma'lumot-lari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.




“Hamkor Sugurta”, “Ishonch”, “Kafil Sugurta”, “Kafolat”, “Kapital Sugurta”, “Madad”, “O‘zbekinvest Hayot”, “Silk Road Insurance”, “Sugurta uz”, “Temir Yo‘l Sugurta”, “Transinsurance Plus”, “Uzagrosugurta”, “Uzbekinvest” va “Xalq Sugurta”. 2012 yildagi TOP – 25 loyihasi ma’lumotlari asosida sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari strukturasi 2.1.5 – rasmda keltirilgan.



**2.1.5 – rasm. Sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari strukturasi (foiz) (TOP – 25 loyihasi ma’lumotlari asosida)<sup>15</sup>**

Yuqoridagi sug‘urta kompaniyalari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari ichidan ixtiyoriy mulk sug‘urtasi hamda majburiy sug‘urta eng ko‘p qismni tashkil etadi. 28,4 foiz turli ko‘rinishdagi ixtiyoriy sug‘urtadan yig‘ilgan. Sug‘urta mukofotlaridan eng kam miqdorda yig‘ilgani ixtiyoriy javobgarlik sug‘urtasi hisoblanadi. Sababi mazkur sug‘urta turiga bo‘lgan talab pastligidandir. Yuqoridagi TOP – 25 loyihasi bo‘yicha respublikada ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining miqdori 2.1.6 – rasmda keltirilgan.


<sup>15</sup> UzReport axborot agentligining [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) –internet sahifasi ma’lumot-lari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



**2.1.6 – rasm. Respublikada ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlarining hajm dinamikasi (mlrd so'm)<sup>16</sup>**

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlari miqdori yildan – yilga o'smoqda. Shaxsiy sug'urtada yig'ilgan mukofotlar 2010 yil 8,8 mlrd so'm va 2011 yilda 10 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2012 yilda esa 16,6 mlrd so'mgacha chiqqan, mulkiy sug'urtada 2010 yil 39,7 mlrd so'm, 2011 yil 58,4 mlrd so'm yig'ilgan bo'lib, 2012 yilda esa 71,7 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2012 yil 2010 yilga nisbatan 1.8 marta oshganini ko'rishimiz mumkin. Javobgarlik sug'urtasida 2010 yil 4,4 mlrd so'm, 2011 yil 6,9 mlrd so'm va 2012 yil 8,5 mlrd so'm jami sug'urta mukofotlari yig'ilgan. Endi respublikada 2012 yilda TOP – 25 loyihasi ma'lumotlari asosida ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta to'lovlari miqdorini ko'rib chiqamiz (2.1.7 – rasm).


<sup>16</sup> UzReport axborot agentligining [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) –internet sahifasi ma'lumot-lari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



**2.1.7 – rasm. Respublikada ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta to'lovlarning hajm dinamikasi (mlrd so'm)<sup>17</sup>**

2012 yilda shaxsiy sug'urta turida respublika bo'yicha 3 mlrd so'm sug'urta to'lovlari to'landi. Mulkiy sug'urta turida 7,9 mlrd so'm, javobgarlik sug'urta turida 0,2 mlrd so'm hamda aralash ko'rinishdagi sug'urta turlarida 4,5 mlrd so'm sug'urta to'lovlari to'landi. TOP – 25 loyiha doirasidagi sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan majburiy sug'urta mukofotlari hajmini ko'rib chiqamiz (2.1.8 – rasm).

<sup>17</sup> UzReport axborot agentligining [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) –internet sahifasi ma'lumot-lari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



**2.1.8 – rasm. Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlari strukturasi (foiz)<sup>18</sup>**

2012 yilda respublikada majburiy sug'urta sohasida jami yig'ilgan sug'urta mukofotlaridan 57,7 foizi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtaga, 27,3 foizi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtaga, 3,7 foizi xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariya yuz bergan taqdirda fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtaga, 5,1 foizi qurilish – montaj xavflarini majburiy sug'urtaga va 6,2 foizi boshqa majburiy sug'urta turiga tegishli.

Mamlakatimizda bir qator sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozoridagi ulushlari turlicha bo'lib, ular sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari bo'yicha bozorda o'z ulushlariga ega bo'ladilar. Sug'urta to'lovlari va mukofotlar bo'yicha yirik sug'urta kompaniyalarining bozordagi ulushini qarab chiqamiz (2.1.1 – jadval).

**2.1.1 – jadval**

<sup>18</sup> UzReport axborot agentligining [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) –internet sahifasi ma'lumot-lari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**2012 yil yakunlariga ko‘ra yetakchi sug‘urta kompaniyalarining  
sug‘urta mukofotlari va sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha bozordagi ulushlari<sup>19</sup>**

Sug‘urta mukofotlari			Sug‘urta to‘lovlari		
№	Kompaniya	Bozordagi ulushi	№	Kompaniya	Bozordagi ulushi
1	Uzagrosugurta	19,9%	1	Asia Insurance	26,8%
2	Uzbekinvest	18,6%	2	Uzagrosugurta	19,2%
3	Asia Insurance	12,9%	3	Uzbekinvest	15,9%
4	Kafolat	9,0%	4	O‘zbekinvest Hayot	10,9%
5	Transinsurance Plus	7,6%	5	Kafolat	6,2%
6	Kapital Sugurta	5,9%	6	Kapital Sugurta	5,7%
7	ALSKOM	5,5%	7	Transinsurance Plus	5,7%
8	Temir Yo‘l Sugurta	4,8%	8	ALSKOM	2,7%
9	O‘zbekinvest Hayot	3,1%	9	Agro Invest Sugurta	2,5%
10	Agro Invest Sugurta	1,9%	10	Xalq Sugurta	1,2%
11	Xalq Sugurta	1,8%	11	Temir Yo‘l Sugurta	0,8%
12	Ishonch	1,5%	12	Ishonch	0,7%
13	Sugurta uz	1,5%	13	Euroasia insurance	0,5%
14	Gross Insurance	1,2%	14	DD General Insurance	0,4%
15	Kafil Sugurta	1,0%	15	Sugurta uz	0,3%
16	Euroasia insurance	1,0%	16	Silk Road Insurance	0,2%
17	Asko Vostok	0,8%	17	Asko Vostok	0,2%
18	DD General Insurance	0,7%	18	Madad	0,1%
19	Silk Road Insurance	0,7%	19	Kafil Sugurta	0,1%
20	Hamkor Sugurta	0,4%	20	Hamkor Sugurta	0,1%
21	Madad	0,3%	21	Gross Insurance	0,0%

2012 yil yakunlari bo‘yicha mamlakatimiz sug‘urta kompaniyalari orasida sug‘urta mukofoti bo‘yicha “O‘zagrosug‘urta” DASK sug‘urta bozorida yetakchilik qilmoqda. Ushbu kompaniya eng ko‘p sug‘urta mukofotlarini jamlagan va bozordagi ulushi 19,9 foizni tashkil qiladi. Keyingi o‘rinlarda “O‘zbekinvest”

<sup>19</sup> UzReport axborot agentligining [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) –internet sahifasi ma’lumot-lari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

MEISK turadi va bozordagi ulushi 18,6 foizni tashkil etadi. Sugʻurta toʻlovlari boʻyicha “Asia Insurance” sugʻurta kompaniyasi bozorda yetakchilik qilmoqda va bozordagi ulushi 26,8 foiz boʻlgan. “Oʻzagrosugʻurta” DASK bozordagi ulushi 19.2 foiz, “Oʻzbekinvest” MEISK esa 15.9 foizni tashkil etadi. OAJ “ALSKOM” sugʻurta kompaniyasi yetakchi 10 ta sugʻurta kompaniyalari qatoriga kiradi. Sugʻurta mukofoti boʻyicha bozordagi ulushi 5,5 foizni, toʻlovlar boʻyicha esa 2,7 foizni tashkil qiladi.

Sugʻurta kompaniyalar tashkil etilishining moliyaviy asosi ustav kapitali hisoblanib, u turli yoʻllar bilan shallantiriladi. Sugʻurta kompaniyalari ustav kapitalini shakllantirishva ularning miqdori boʻyicha meʼyoriy huquqiy asoslar ishlab chiqilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sugʻurtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qoʻshimcha chora – tadbirlari toʻgʻrisida”gi 31 may 2011 yildagi 1544 – sonli qaroriga muvofiq sugʻurta kompaniyalarning ustav kapitalining minimal miqdori 2.1.2 – jadvalda keltirilgan.

### 2.1.2 – jadval


#### Sugʻurta kompaniyalari ustav kapitalining eng minimal miqdori (ming yevro)<sup>20</sup>

Sugʻurta faoliyati turlari	2012 yil 1 iyuldan	2014 yil 1 iyuldan
Umumiy sugʻurta sohasida	1 125,0	1 500,0
Hayotni sugʻurtalash sohasida	1 500,0	2 000,0
Majburiy sugʻurtalash boʻyicha	2 250,0	3 000,0
Faqat qayta sugʻurtalash boʻyicha	5 000,0	6 000,0

Ushbu qarorda sugʻurtalovchilarning ustav kapitalining minimal miqdori belgilab berildi. 2012 yil 1 iyuldan boshlab umumiy sugʻurta sohasi bilan shugʻullanishi uchun 1125 ming yevro, hayotni sugʻurtalash sohasida shugʻullanish uchun 1500 ming yevro, majburiy sugʻurta bilan shugʻullanish uchun

<sup>20</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sugʻurtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qoʻshimcha chora – tadbirlari toʻgʻrisida”gi 31 may 2011 yildagi 1544 – sonli Qarori

2250 ming yevro ustav kapital minimal miqdori bo'lishi kerak. 2012 yil 1 – yanvar holatiga ko'ra respublika jami sug'urtalovchilarning umumiy ustav kapitali 111,9 mlrd so'm va 71,6 mln AQSH dollar bo'lgan. Oldingi yilga nisbatan 121,1 foizga o'sgan. 2007 yillar bilan solishtirilganda respublika sug'urtalovchilarning umumiy ustav kapitalining miqdori 5,1 marta o'sganini ko'rishimiz mumkin. (2.1.9 – rasm).



### 2.1.9 – rasm. Sug'urtalovchilarning ustav kapitalini umumiy miqdorini o'sish dinamikasi<sup>21</sup>

2011 yil yakunlariga ko'ra ustav kapital hajmini shakllantirish bo'yicha sug'urta bozori yetakchilari – “O'zbekinvest” MEISK – 60 mln AQSH dollar, so'm ko'rinishida – “Kafolat” DAKS – 8,2 mlrd so'm va “Alfa invest” YAJ – 7,5 mlrd so'm hisoblanadi.

Ustav kapitali miqdori bo'yicha sug'urtalovchilar quyidagicha taqsimlanadi:

1 – guruh – 1,0 mln yevro ekvivalent summagacha – 18,9 % (7 ta sug'urtalovchilar);

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining [www.mf.uz](http://www.mf.uz) –internet sahifasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2 – guruh – 1,0 dan 1,5 mln yevro ekvivalent summasigacha – 21,6 % (8 ta sug‘urtalovchilar);

3 – guruh – 1,5 mln yevro ekvivalent summasidan yuqori – 59,5 % (22 ta sug‘urtalovchilar).

OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasining ustav kapitali 2011 yilda 3,7 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Shunday qilib, ushbu bobning birinchi qismida O‘zbekiston sug‘urta bozorining mavjud holatini, yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarini, to‘langan sug‘urta to‘lovlarini, ulardan qancha qismi majburiy sug‘urtaga, qancha qismi esa ixtiyoriy sug‘urtaga tegishligini, sug‘urta kompaniyalarining ustav kapitalini o‘rishini ko‘rib chiqdik. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, mamlakatimiz sug‘urta tizimi yildan – yilga rivojlanib borayotganligini, sug‘urta sohasida olib borilayotgan islohotlarni samara berishini ko‘rishimiz mumkin.

## **2.2. Aloqa operatorlari va internet provayderlari foydalanayotgan sug‘urta turlarining tahlili**

Aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar uchun “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatib keladi. Xususan aloqa operatorlar va internet provayderlariga ham. Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot ob’ekti bo‘lganligi sababli ushbu kompaniya haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.


OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasi mamlakatimizdagi yetakchi sug‘urta kompaniyalaridan biridir. Uning o‘ziga xos jihati shundaki, kompaniya axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat ko‘rsatadigan sub’ektlarni sug‘urtalash orqali kompleks himoya qilishga ixtisoslashgandir. Kompaniya 1996 yil sentabrda tashkil qilingan. Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan berilgan maxsus litsenziya asosida



umumiy sug'urta sohasining 12 dona sug'urta klasslari bo'yicha 50 dan ortiq turli ko'rinishdagi ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. Hozirgi kunda OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasi sug'urta turlar 3 – ilovada keltirilgan.

O'tgan vaqt mobaynida kompaniya o'zini aloqa korxonalari manfaatlarining himoyachisi va ishonchli hamkori sifatida namoyon qildi, axborot-kommunikatsiya sub'ektlari faoliyatiga xos bo'lgan tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda boshqarishga doir samarali tizim ishlab chiqildi.

Endi kompaniyaning sug'urta turlarini tahlil qilib chiqamiz. OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasining sug'urta mukofotlari va to'lovlarning taqqoslama tahlili 2.2.1 – rasmda ko'rsatilgan.




### 2.2.1 – rasm. OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasining sug'urta to'lovlari va mukofotlarining solishtirma tahlili (mln so'm)<sup>22</sup>

Yuqoridagi rasm o'zida 2008 – 2012 yillar ma'lumotlarini mujassam etgan. 2008 yilda OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasining to'lovlar umumiy miqdori 191,9 mln so'mni tashkil qilgan. 2009 yil 410,6 mln so'mlik sug'urta to'lovlari sug'urta kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, 2008 yilga nisbatan

<sup>22</sup> OAJ "ALSKOM" SK ning yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

218,7 mln so‘m ko‘p. 2010 va 2011 yillarda ham to‘lovlar miqdori oshgan bo‘lib, 144,3 va 284 mln so‘mga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu kompaniyaning sug‘urta mukofotlarining hajmi ham yildan yilga oshib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga sabab fuqarolik javobgarligining majburiy sug‘urtasi va ixtiyoriy sug‘urtaga talabning oshganligini ko‘rsatadi. 2009 yil oldingi yilga nisbatan 2725.8 mln so‘m, 2010 yil 1178.9 mln so‘m, 2011 yil 2713.8 mln so‘mga sug‘urta mukofotlari hajmi ortgan. 2012 yil Kompaniya tomonidan jami 12,8 mlrd. so‘m sug‘urta mukofoti yig‘ilgan, bundan 8,9 mlrd. so‘m ixtiyoriy sug‘urta turlaridan va 3,9 mlrd. so‘m majburiy sug‘urta turlaridan tushgan.

OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasining sug‘urta mukofotlarini sug‘urta turlari bo‘yicha taqsimlab chiqamiz (2.2.2 – rasm).




### 2.2.2 – rasm. OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasining sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining solishtirma tahlili (mln so‘m)<sup>23</sup>

<sup>23</sup> “ALSKOM” SK ning yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, sug‘urta mukofotlarining ko‘p qismi mulk sug‘urtasiga to‘g‘ri keladi. Shaxsiy sug‘urtada sug‘urta mukofotlari hajmi 2009 yil 2008 yilga nisbatan 155,9 mln so‘mga tushib ketgan. Keyinchalik 2010 va 2011 yillarda shaxsiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta mukofoti o‘sgan. Sabab shaxsiy sug‘urtaga bo‘lgan talabning oshishidir. Mulk sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining hajmi oshganini ko‘ramiz. Yuridik va jismoniy shaxslar o‘zlariga tegishli bo‘lgan mol – mulklarini sug‘urtalab qo‘yishgan. Bunga sabab mulk qiymati yuqori bo‘lganligi uchun uni yo‘qotilish, biror hodisa natijasida shikastlanish darajasi va tavakkalchiligi yuqori bo‘lganligi uchun sug‘urtaga bo‘lgan talab oshgan. Mulk sug‘urtasida sug‘urta mukofotlari 2009 yilda oldingi yilga nisbatan 608.2 mln so‘mga, 2010 yil 1019.1 mln so‘mga, 2011 yil 1884,1 mln so‘mga ko‘paygan. Sug‘urta mukofotlarida eng kam ulush javobgarlik sug‘urtasiga to‘g‘ri keladi. Buning asosiy sababi O‘zbekiston sug‘urta bozorida javobgarlik sug‘urtalash hal qiluvchi ahamiyatga ega emasligi. Shuni hisobga olgan holda, javobgarlikni sug‘urtalash turlarini salohiyatli sug‘urtalovchilar jozibadorligini oshirish maqsadida sug‘urta nazorat davlat inspekiyasi tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Sug‘urtalovchilarga, shu jumladan OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasiga javobgarlikni sug‘urtalash bo‘yicha marketing ishlarini jonlantirishni taklif etamiz.

Majburiy sug‘urtada sug‘urta mukofoti hajmi 2009 yilda 2008 yilga nisbatan 2270.1 mlnga o‘shishni qayd etdi. Bunga sabab 2008 yil 21 fevralda “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Resoublikasi Qonuni qabul qilingani bo‘ldi.

Kompaniya har yili sug‘urta davolari asosida sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirib keladi. 2011 yilda Kompaniya tomonidan to‘langan sug‘urta to‘lovlarining miqdori 839 mln so‘mni tashkil etgan. Sug‘urta to‘lovlari ichidan transport sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari eng ko‘p qismni tashkil etadi (2.2.3 – rasm).



### 2.2.3 – rasm. OAJ “ALSKOM” SK tomonidan 2011 yilda jami to‘langan sug‘urta to‘lovlari miqdori (foiz)<sup>24</sup>

Transport sug‘urtasining sug‘urta to‘lovlari ko‘p qismini tashkil etilishiga sabab, transport vositasi bilan bog‘liq sug‘urta hodisalarining ko‘p bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bundan keyingi o‘rinlarda shaxsiy sug‘urta bo‘yicha to‘lovlari turadi. Uning ulushi 37 foizni tashkil etgan. Qolganlari mulkiy va bank sug‘urtasi hisoblanadi.

OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasining AKT sohasida amalga oshirayotgan ishlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. OAJ “ALSKOM” kompaniyasi ishlab chiqilgan o‘z rivojlanish konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, faoliyatini jadal yuksalib borayotgan axborot-kommunikatsiya sohasidagi talablarga javob beradigan yangi innovatsion sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qaratmoqda. Misol uchun, “Biznesni rivojlantirish markazi”, “Uzmobile” kompaniyalarining baxtsiz hodisalardan o‘zini sug‘urta qiladigan abonentlari uchun yangi xizmat ko‘rsatish shakllari qo‘llanilmoqda. Shuningdek, elektron raqamli imzodan foydalanuvchilarni ham sug‘urtalash orqali himoya qilishni taklif etish mo‘ljallanmoqda.

<sup>24</sup> OAJ “ALSKOM” SK ning yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ushbu sohaga xos yangi-yangi tavakkalchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu borada tavakkalchiliklar sonining ko'payishi bevosita iqtisodiyot yoki alohida tarmoqning rivojlanish sur'ati bilan uzviy bog'liqdir.

Ijtimoiy so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, soha sub'ektlarining 73 foizi tavakkalchiliklarning tashqi omillarini xavfli deb hisoblasa, qolgan 27 foizi ichki omillar, xususan, xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyati, pul muomalasi va boshqaruvning xavfliroq ekanini qayd etadi. Bu esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sub'ektlari faoliyatini ishonchli himoya qilishni ta'minlashga qodir zamonaviy sug'urta tizimini shakllantirishni talab qilmoqda.

Mobil aloqa, internet provayderlar va boshqa sub'ektlarning mijozlar bazasini kengaytirish uchun ularning abonentlarini sug'urtalash mexanizmi yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishda yetakchi internet-provayder – "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining "Biznesni rivojlantirish markazi" filiali bilan internet kartalaridan foydalanuvchilar sog'lig'i va hayotini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash orqali faol hamkorlik amalga oshirilmoqda.

"Uzmobile" uyali aloqa operatori abonentlariga qulay sharoitlar yaratish maqsadida to'lov muddatini uzaytirish sharti bilan sotib olingan mobil va ko'chmas aloqa apparatlari uchun qolgan mablag'ni to'lamaslikdan sug'urtalash dasturi hayotga tatbiq etilmoqda. Shu kungacha 54 ta holat yuzasidan sug'urta to'lovlari amalga oshirildi.


"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi aholiga xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish uchun "Yagona oyna" prinsipi bo'yicha ishlaydigan operatorlik punktlarini bosqichma-bosqich tashkil qilmoqda. Ayni paytda abonentlarni kompleks ravishda sug'urta qilishning yangi shaklini joriy etish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekistonning axborot-kommunikatsiya sohasi innovatsion rivojlanish yo'lida samarali yuksalmoqda va bu sug'urta munosabatlarini ham rivojlantirishga alohida yondashishni talab etmoqda. Shuning uchun OAJ "ALSKOM" sug'urta

kompaniyasi istiqboldagi o'z rivojlanish dasturida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgiladi. Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tender savdolarini o'tkazish va ishonchli qayta sug'urtalash mexanizmini yaratish yo'li bilan davlat manfaatlariga javob beradigan narxi qimmat ob'ektlarni sug'urtalash bo'yicha sug'urta bozori segmentini imkon qadar o'zlashtirishdir. Keyinchalik sohaga jalb etiladigan investitsion loyihalarni sug'urta qilish mexanizmini yaratish va joriy etish zarur. Axborot-kommunikatsiya sohasida to'g'ridan-to'g'ri davlat nazorati o'rniga muqobil sug'urtalash uslublarini bosqichma-bosqich joriy qilish, ya'ni axborot-kommunikatsiya sohasini litsenziyalash va texnik boshqarish bo'yicha amaldagi mexanizmni optimal sug'urta uslublari bilan bosqichma-bosqich almashtirish lozim.


Mobil aloqa operatorlari va internet provayderlar faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning abonentlari sonini ko'paytirish uchun ularning abonentlarini sug'urtalash xizmatlarini yanada kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish uchun yangi sug'urta xizmatlarini ishlab chiqish va joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta, hayotni uzoq muddatli hamda jamg'arib boriladigan sug'urtalash hamda boshqalar shular jumlasidandir.

“O'zbektelekom” AK ning “Uzmobile” va “Biznesni rivojlantirish markazi” filiallari hozirgi kunda sug'urta munosabatlarda bevosita qatnashib kelmoqdalar. Ushbu kompaniyalar OAJ “ALSKOM” SK ning mijozlari hisoblanadi. “O'zbektelekom” AK filiali “Uzmobile” aloqa operatori va “Biznesni rivojlantirish markazi” internet provayderi 2012 yilda ixtiyoriy va majburiy sug'urta turi bo'yicha OAJ “ALSKOM” SK bilan sug'urta munosabatlarni o'rnatganlar. “O'zbektelekom” AK “Uzmobile” filialining ixtiyoriy va majburiy sug'urtadan sug'urta summasi 7, 467 mlrd so'mni tashkil qilsa, “O'zbektelekom” AK “Biznesni rivojlantirish markazi” filialining sug'urta summasi 9, 784 mlrd so'mni tashkil etadi. (2.2.4 – 2.2.5 – rasmlar).



**2.2.4 – rasm. “O‘zbektelekom” AK “Uzmobile” filialining ixtiyoriy va majburiy sug‘urta turi bo‘yicha taqsimlanishi (foiz)<sup>25</sup>**

Rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, “O‘zbektelekom” AK “Uzmobile” filialining jami sug‘urta summalaridan 79 foizi ixtiyoriy sug‘urtaga, 21 foizi esa majburiy sug‘urtaga to‘g‘ri keladi.




**2.2.5 – rasm. “O‘zbektelekom” AK “Biznesni rivojlantirish markazi” filialining ixtiyoriy va majburiy sug‘urta turi bo‘yicha taqsimlanishi (foiz)<sup>26</sup>**

<sup>25</sup>OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>26</sup>OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

“O‘zbektelekom” AK “Biznesni rivojlantirish markazi” filialining jami sug‘urta summalaridan 98 foizi ixtiyoriy sug‘urtaga, 2 foizi esa majburiy sug‘urtaga to‘g‘ri keladi. “O‘zbektelekom” AK “Biznesni rivojlantirish markazi” filiali majburiy sug‘urta turida OAJ “ALSKOM” SK bilan “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish” bo‘yicha shartnoma imzolaganlar.

Ixtiyoriy sug‘urta turidan “O‘zbektelekom” AK “Uzmobile” filialining sug‘urta summasi 5,927 mlrd so‘mni, “O‘zbektelekom” AK “Biznesni rivojlantirish markazi” filialining esa sug‘urta summasi 9,614 mlrd so‘mni tashkil qilar ekan. Ushbu sug‘urta summasini sug‘urta turlari bo‘yicha taqsimlab chiqsak, 2.2.6 – 2.2.7 – rasmlardagi holatni ko‘rishimiz mumkin.




**2.2.6 – rasm. “O‘zbektelekom” AK filiali “Uzmobile” aloqa operatorining sug‘urta summalarining sug‘urta turlari bo‘yicha taqsimlanishi (foiz)<sup>27</sup>**

Ushbu rasmda jami yig‘ilgan sug‘urta summalaridan 79 foizi mulk sug‘urtasiga, 20 foizi transport sug‘urtasiga va 1 foizi esa baxtsiz hodisalardan

<sup>27</sup> OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



sug'urtalashga to'g'ri keladi. Mulk yo'qolish xavfi va shunga o'xshash risklarning yuqoriligi sababli ham filial mulkiy sug'urta bo'yicha sug'urta munosabatlarni o'rnatmoqda.




**2.2.7 – rasm. “O‘zbektelekom” AK filiali “Biznesni rivojlantirish markazi” internet provayderining sug‘urta summasining sug‘urta turlari bo‘yicha taqsimlanishi (Foiz)<sup>28</sup>**

“O‘zbektelekom” AK “Biznesni rivojlantirish markazi” filialida jami yig‘ilgan sug‘urta summalaridan 89 foizi mulk sug‘urtasiga, 7 foizi transport sug‘urtasiga va 4 foizi esa baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashga to‘g‘ri keladi. Bu yerda ham sug‘urta summasidan eng ko‘p yig‘ilgani mulk sug‘urtasiga to‘g‘ri keladi.

“O‘zbektelekom” AK ning “Uzmobile” filiali Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish va Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha OAJ “ALSKOM” SK bilan shartnoma asosida javobgarliklarini sug‘urtalab qo‘yganlar. “O‘zbektelekom” AK ning “BRM” filiallari esa faqatgina Transport vositalari egalarining fuqarolik

<sup>28</sup> OAJ “ALSKOM” sug‘urta kompaniyasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha OAJ "ALSKOM" SK bilan shartnoma asosida javobgarliklarini sug'urtalaganlar (2.2.8 – rasm).



**2.2.8 – rasm. "O'zbektelekom" AK "Uzmobile" filiali va "Biznesni rivojlantirish markazi" filialining majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta summasi (mln so'm)<sup>29</sup>**

"O'zbektelekom" AK ning "Uzmobile" filiali 2012 yilda "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish"da sug'urta summasi 1,518 mln so'm, "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish"da esa sug'urta summasi 21,847 mln so'mni tashkil qilgan. "O'zbektelekom" AK ning "Biznesni rivojlantirish markazi" filiali "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish"da sug'urta summasi 170,477 mln so'mni tashkil etgan.

<sup>29</sup> OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

### **III. ALOQA OPERATORLARI VA INTERNET PROVAYDERLAR FAOLIYATIDA SUG‘URTA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

#### **3.1. Rivojlangan chet davlatlarda sug‘urta munosabatlarini tashkil etilishi**

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning moliya-kredit tizimida sug‘urta kompaniyalari eng muhim bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Sug‘urta milliy iqtisodiyot rivojlanishini ta‘minlovchi omil sifatida katta ahamiyatga ega. Sug‘urta tashkilotlari turli noxush va ko‘ngilsiz voqealar natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash mumkin. Bu orqali esa iqtisodiyot sub‘ektlarining moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat yuritishlari ta‘minlanadi. Ayrim fuqarolar hayotida baxtsiz hodisalar ro‘y berganda esa sug‘urta ularga moddiy ko‘mak beruvchi muhim moliyaviy dastak bo‘lib hisoblanadi.

Sug‘urta tashkilotlari mamlakat doirasida yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etishadi. Ular tasarrufida to‘plangan pul mablag‘lari moliya bozori orqali Davlat byudjeti taqchilligini bartaraf etishga katta hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

Sug‘urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada shakllantirish, sug‘urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug‘urtalovchining kapitallashuv darajasini ko‘paytirish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, ularning mintaqaviy tarmoqlarini kengaytirish, shuningdek sug‘urtalashni tartibga solish usullarini takomillashtirish maqsadida 2007 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 618-son qarori qabul qilingan edi, lekin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 31 may 2011 yildagi 1544 – sonli qarori qabul

qilinishi natijasiga yuqoridagi qaror o‘z kuchini yo‘qotdi. Ushbu qarorga muvofiq, 2007-2010 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish Dasturi ishlab chiqildi. Ushbu chora-tadbirlar ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlari, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatini, import-eksport operatsiyalarini sug‘urtalash, hayotni uzoq muddatga sug‘urtalash, jumladan sug‘urtaning jang‘arma turlari sohasida sug‘urta xizmatlari hajmini, ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirishga qaratilgan.

Jahonda ish olib borayotgan bir necha o‘n minglab katta-kichik sug‘urta tashkilotlari, ularning filiallarining tuzilishi bir xil emas. Bu tashkilotlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) Fuqarolarning barcha tabaqalariga xizmat qiluvchi, aksiyalari birja va boshqa yo‘l bilan sotiladigan *erkin sug‘urta kompaniyalari*.

2) Xususiy aksionerlik sug‘urta kompaniyalari, bu tashkilotlarning xususiyati shundan iboratki, uning aksiyalariga ma‘lum doiradagi shaxslar egalik qiladilar. Jamiyat qarori bilan ishonchli kishilarga ularni aksiyalari sotilishi mumkin.

3) Davlat sug‘urta kompaniyalari, ularning aksiyalariga davlat to‘la yoki qisman egalik qiladi. Bundan tashqari davlat tomonidan ayrim ixtisoslashgan sug‘urta tashkilotlari barpo qilinishi mumkin.

4) O‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari. Ayrim ishlab chiqarish sohalarida bunday sug‘urta kompaniyalari tuzilib, ularni asosiy maqsadi foyda olish bo‘lmasdan, murakkab vaziyatlarda bir-birlariga o‘zaro yordam ko‘rsatishdir.

5) Ayrim sanoat va savdo tarmoqlariga xizmat qiluvchi ixtisoslashgan sug‘urta tashkilotlari. Masalan: aviatsiya sohasida sug‘urtalash chegaralangan bo‘lgani uchun, ular o‘z tarmoqlari bo‘yicha ixtisoslashgan tashkilotlarni tuzadilar.

Bundan tashqari “Lloyd” sug‘urta tashkilotiga o‘xshash sug‘urta sindikatlari ham mavjud.

Sug‘urta tashkilotlari ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan asosda o‘z ishlarini tashkil qiladilar. Ixtisoslashmagan sug‘urta tashkilotlari sug‘urtaning bir necha

turlari bo'yicha o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari ko'pincha bir-ikki ixtisoslik yo'nalishlarida ish olib boradilar.

Sug'urta tashkilotlari sug'urta ob'ektlari va tavakkalchiliklar turlari bo'yicha ham guruhlanadilar. Dastlab shuni aytish kerakki, bunday ixtisoslashish 1978 yil 1 yanvardan boshlab tashkil qilingan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tizimida to'laroq o'z ifodasini topgan. Bu tizimda sug'urtaning barcha turlari ikki guruhga bo'linadi: *uzoq muddatli va qisqa muddatli umumiy sug'urta guruhlariga.*

Uzoq muddatli sug'urta turlariga quyidagi sug'urta yo'nalishlari kiradi:

1. Hayotni va annuitetni sug'urtalash.
2. Nikoh va farzand tug'ilishi sug'urtasi.
3. Uzluksiz sog'liq sug'urtasi.
4. Tonting (davlat tomonidan kredit shirkatlari bilan qarz munosabatlari) sug'urtasi.
5. Kapitalni qaytarish sug'urtasi.
6. Pensiya sug'urtasi.
7. Boshqa turdagi uzoq muddatli sug'urtalar.

Sug'urtaning qisqa muddatli umumiy turlari:

1. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.
2. Betoblik sug'urtasi.
3. Avtomobil sug'urtasi.
4. Temir yo'l vagonlari sug'urtasi.
5. Samolyotlar sug'urtasi.
6. Kemalar sug'urtasi.
7. Yuklar va transport sug'urtasi.
8. Mulklarni yong'in va tabiiy ofatlardan sug'urtalash.
9. Transport haydovchilarning fuqarolik javobgarligi sug'urtasi.
10. Avtokompaniya egalarini fuqarolik javobgarligi sug'urtasi.
11. Kema egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi.
12. Umumiy javobgarlik sug'urtasi.

13. Kredit sug'urtasi.
14. Xodimlarni zarardan sug'urtalash.
15. Moliyaviy zararlar sug'urtasi.
16. Sud xarajatlari bo'yicha to'lovlar sug'urtasi.

Hozirgi kunda jahonda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Korea, Yaponiya, Singapur davlatlarida sug'urta bozorida sug'urta tizimi rivojlangan mamlakatlardir. Buning asosiy sababi shundaki, ishlab chiqarishning gurkirab rivojlanishi, barqaror iqtisodiy o'sish, pirovardida bu mamlakatlarda oddiy aholi turmush darajasining farovonligi sug'urta ishining taraqqiy etishi uchun zamin yaratdi. So'nggi yillarda AQSH sug'urta kompaniyalari jahon sug'urta bozoridagi yetakchi mavqeini yo'qotgan emas. Amerika Qo'shma Shtatlarida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarini uchta yirik guruhga bo'lish mumkin:

- hayotni sug'urta qilishga ixtisoslashgan kompaniyalar;
- umumiy sug'urta operatsiyalarini (hayotni sug'urta qilishdan tashqari) amalga oshiruvchi kompaniyalar;
- o'zaro sug'urtalash jamiyatlari.

Hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan Amerikaning eng yirik kompaniyalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bugungi kunda ko'p ming sonli Pensiya fondlariga tegishli yuz milliardlab mablag'larni boshqaradilar. Ayrim kompaniyalar aktivining 30—40 foizini, aynan Pensiya fondlariga tegishli mablag'lar tashkil etadi. Bunda sug'urta monopoliyalarining asosiy vazifasi Pensiya fondlari tomonidan ishonchli boshqaruvga topshirilgan mablag'larni oqilona investitsion siyosat yuritish orqali ko'paytirishdan va ishonchli saqlashdan iborat. Sug'urta kompaniyalari bunday xizmatlari uchun Pensiya fondlaridan tegishli vositachilik haqini oladilar. Bu xizmat haqi sug'urta kompaniyalariga millionlab daromad keltiradi. Ammo, bu asosiysi emas. Gap shundaki, sug'urta kompaniyalari ixtiyoridagi katta miqdordagi investitsion resurslar, ularning sanoat korxonalarini ustidan nazorat o'rnatishlari uchun imkoniyat yaratadi. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, Amerikaning eng yirik 100 ta sanoat korporatsiyalaridan

27 tasida sug'urta kompaniyalarining vakillari Direktorlar kengashini boshqargan. Bu ko'rsatkich bo'yicha sug'urta kompaniyalari faqat tijorat banklari va investitsiya kompaniyalaridan keyingi o'rinda turadi.

Umumiy sug'urta operatsiyalarini amalga oshiruvchi kompaniyalar, aytarli barcha ko'rsatkichlar bo'yicha hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan kompaniyalardan keyin turadi. Ammo yig'ib olinadigan sug'urta mukofotlari miqdori va aktivining o'sishi bo'yicha umumiy sug'urta operatsiyalarini amalga oshiruvchi kompaniyalar biroz ilgari harakat qilishmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, keyingi yillarda bu sug'urta turlariga bo'lgan talab sezilarli ravishda kuchaydi. Mazkur toifaga mansub sug'urtalovchilar mijozlar sonini oshirish maqsadida muntazam yangi sug'urta xizmatlarini taklif etmoqdalar. Jumladan, advokatlarning, shifokorlarning va me'morlarning uchinchi shaxsga zarar keltirish bo'yicha kasbiy javobgarligini sug'urta qilish yuqoridagi fikrimizning yaqqol isbotidir. Hozirgi paytda, birgina "San Paul kompani" sug'urta kompaniyasida 65 mingdan ortiq shifokor o'z javobgarligini sug'urta qilishgan. Ushbu sug'urta turi bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlari miqdori yalpi tushumlarning 15 foiziga yaqinini tashkil etmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarining sug'urta tizimida "M'yuchuels" deb ataluvchi o'zaro sug'urtalash jamiyatlari o'ziga xos o'rinni egallaydi. Agar aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining egalari aksiyadorlar bo'lsa, "M'yuchuels" tipidagi o'zaro sug'urtalash jamiyatining egalari — bu shu jamiyatda o'z hayoti yoki mol mulkini yoxud javobgarligini sug'urta qilgan jismoniy va yuridik shaxslardir. Bunday sug'urta jamiyatlarining butun pul mablag'lari sug'urta mukofotlari va foydadan ajratmalar hisobidan shakllanadi. Shuning uchun sug'urta mukofoti bir vaqtning o'zida sug'urtalanuvchining jamiyatga kirish hissasi bo'lib ham xizmat qiladi. Sug'urtalanuvchi o'zaro sug'urtalash jamiyatidan sug'urta polisini sotib olar ekan, u nafaqat sug'urta qoplamasini olishga da'vogarlik qiladi, balki sug'urtalovchi faoliyatining natijalari bo'yicha olingan foydaning bir qismini olishga ham haqlidir. Dastlabki, "M'yuchuels" tipidagi sug'urta jamiyatlari

aksiyadorlik sug'urta kompaniyalariga qarama-qarshi ravishda tashkil etildiki, bunda sug'urtalovchi nafaqat sug'urtani daromad olishning bir manbai sifatida qarashi, balki o'zining hissadorlarini eng qulay sharoitlarda sug'urtalashi zarur edi. AQSHning eng yirik va yetakchi sug'urta kompaniyalariga "SIGNA" sug'urta korporatsiyasi, "Amerikan International Group (AIG)" kompaniyasi hisoblanadi.

Buyuk Britaniya jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Keyingi o'n yil mobaynida jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga Buyuk Britaniya sanoatining qo'shayotgan hissasi sezilarli darajada kamaygan, uning tovarlarining xalqaro bozorlaridagi raqobatdoshligi tushib ketgan bo'lsa-da, Buyuk Britaniyaning moliya-kredit tizimi hamon dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada erkin sug'urta tizimi barpo etilgan. Bu yerda hattoki, sug'urta kompaniyalarini nazorat qiladigan maxsus organ ham yo'q. Moliyaviy xizmatlarni tartibga solish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Sug'urta badallarini o'rnatish va sug'urta qilish qoidalari erkinligiga qaramasdan, bu yerda ko'rsatilayotgan xizmat sifati boshqa mamlakatlarnikidan ancha yuqori, narxlari esa past darajada. Tarixan tarkib tushishiga ko'ra, Britaniya sug'urta bozori ikki mustaqil qismga bo'linadi: London va boshqa barcha hududlar. London bozori odatda, xorijiy mijozlarni, dengiz kemalarini, neft kompaniyalarini, transmilliy kompaniyalarni sug'urtalaydi. London bozorida hukmronlik qiluvchi Lloyd sug'urta kompaniyasi oxirgi yillardagi qiyinchiliklardan, faqatgina, jiddiy tashkiliy islohotlarni amalga oshirish bilan chiqmoqda. Ushbu qiyinchiliklar mamlakat ichkarisidagi mijozlarni sug'urtalovchi – ichki sug'urta bozoriga ta'sir etmadi.

Umuman olganda, Buyuk Britaniya sug'urta bozori ikki qismga bo'lingan:

- hayotni sug'urta qilish bozori;
- umumiy sug'urta bozori.

Germaniya sug'urta bozori davlat tomonidan qattiq tartibga solinadi. Uning o'ziga xos jihati shundaki, sug'urta biznesi yirik sanoat kapitali bilan yaqin aloqada. Kapitalda va boshqaruvda o'zaro ishtirok etish keng tus olgan.



Mutaxassislarning fikricha, taxminan 50 ta kishi barcha yirik nemis sug'urta kompaniyalarini nazorat qiladi. Shuning uchun ham raqobat asosan sotish tarmoqlari o'rtasida mavjud.

Germaniya sug'urta bozorida hukmronlik qiluvchi kompaniyalardan biri – “Alyans” kompaniyasidir. U hayotni sug'urtalash sohasining 42 foizini va boshqa sug'urta sohalari 38 foizini egallab olgan. “Alyans” aylanmasining taxminan 55 foizga yaqini ichki bozor, qolgani xorijiy faoliyat bilan bog'liq. Yaqin vaqtlargacha, ikkita fransuz kompaniyalari “AXA” va “IAR” ni birlashishdan oldin, “Alyans” Yevropadagi Yevropadagi eng yirik sug'urta kompaniyasi edi.

“R+V” sug'urta kompaniyasi kattaligi jihatidan Germaniyada ikkinchio'rinda turadi. Uning yuksalishiga Berlin devorining qulashi katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu kompaniya kooperativ tartibga ega bo'lib, u asosan, qishloq aholisi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarni sug'urtalashga ixtisoslashgan. Xorijiy kapitalga nisbatan qonuniy cheklovlarning mavjud emasligiga qaramasdan, nemis sug'urta bozori nisbatan yopiq hisoblanadi. Bu aholining: “nemislar o'z sug'urtalovchilarni afzal biladilar” dega psixologiyasi bilan bog'liq. Sug'urta xizmatlari an'anaviy bo'lib, nemis sug'urta kompaniyalari yuqori riskli tajribalarni o'tkazishga moyil emaslar.

Nemis bozorining eng muhim tomoni – bank sug'urtalashdir, ya'ni sug'urta kompaniyasi o'z savdo shahobchasida nafaqat sug'urtalash bilan, balki bank xizmatlarini ko'rsatish bilan ham shug'ullanadi.

Fransuz sug'urta bozori hayotni sug'urtalash va avtomobil sug'urtasiga ixtisoslashgan. Ayniqsa, avtomobil va avtotransport egalari javobgarligini sug'urtalash kuchli darajada rivojlangan. Birinch jahon urushidan so'ng, ko'pgina yirik korxonalar va banklar singari sug'urta kompaniyalari milliylashtirilgan edi va uzoq muddat davlat ixtiyorida bo'ldi. Bu holat milliy iqtisodiyotni jahon bozorida raqobatbardoshligida salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi kunda, davlat sug'urta kompaniyalarining ma'lum qismi xususiylashtirilgan. Hayotni sug'urtalash bo'yicha eng yirik sug'urta kompaniyasi – CNP davlat ixtiyorida

qolmoqda. Fransiyada ijtimoiy sug'urtaning roli kattadir. Yaxshi yo'lga qo'yilgan ijtimoiy ta'minot, pensiyalar bo'yicha davlat kafolatlari, hayotni sug'urtalashni bu yerda boshqa Yevropa mamlakatlarnikiga nisbatan past drajada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ammo, keyingi yillarda ijtimoiy ta'minot va pensiya fondining budjetlari taqchilligiga ega bo'lishi kuzatilmoqda.

Davlat hayotni sug'urtalashni rag'batlantirish bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirdi. Bu sohadagi asosiy tadbirlardan biri sifatida, hayotni sug'urtalash bo'yicha jiddiy soliq imtiyozlari berilishini kuzatish mumkin.

Fransiyada bank sug'urtasi ham yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari, hayotni sug'urtalash shartnomalari, hattoki, pochta orqali sotiladi. Qishloq joylarda va kichikroq shaharlarda, pochta bo'limlari, nafaqat pochta xizmatini, balki sug'urta, bank xizmatlarini ham ko'rsatadi. Ular bank hisobvaraqlarini yuritadilar, jamg'arma hisobvaraqlarini ochadilar va boy bo'lmagan aholi uchun o'ziga xos bankirlar hisoblanadilar.

Yaponiyada sug'urta dastlab XIX asrning o'rtasida Buyuk Britaniyaning tashabbusi bilan vujudga kelgan. Faqat Ikogoma portida 240 ta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatgan, lekin dastlabki milliy sug'urta tashkiloti 1879 yilda Tokioda "Marina" nomi bilan, 8 yil o'tgandan keyin yong'inga qarshi sug'urtalaydigan "Yasuda" sug'urta kompaniyasi qad ko'targan.

Bu tashkilot faqat mulklarni sug'urtalash bilan emas, balki shaxsiy sug'urtani amalga oshirish bilan shug'ullangan. Dastlabki davrlarda sug'urta tashkilotlari faoliyatlari davlat tomonida emas edi, faqat 1900 yilda birinchi sug'urta qonunchiligi qabul qilinib, sug'urta zamon talablariga javob beradigan tartibda tashkil qilina boshladi. Mulkiy sug'urta bilan shaxsiy sug'urta o'rtasidagi xususiyatlar aniqlandi. Shu yildan boshlab sug'urta ustidan davlat nazorati o'rnatildi. O'tgan 100 yildan ortiq davr davomida sug'urta haqidagi qonunga faqat ikki marotaba o'zgartirish kiritilgan.

1940 yilda sug'urta tashkilotlarining soni 48 taga etdi. Urush davrida sug'urta tashkilotlarining soni bir muncha qisqargan bo'lsa ham, lekin 1955 yilga

kelib, ayniqsa, avtomobillarni sug'urtasi haqidagi qonun qabul qilinganidan keyin, sug'urta tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Hozirda Yaponiyada 56 sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lib, 1955 yilga nisbatan sug'urta to'lovlari 130 barobarga yaqin ko'paydi. Yillik o'sish 13 %ni tashkil qiladi. Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida sug'urta tashkilotlarining jamg'armalari 100 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi. Sug'urta agentlari sifatida 1 milliondan ortiq agent faoliyat ko'rsatadi.

Sug'urta turlari orasida avtomobillarni sug'urtalash katta o'rin tutadi, uning xissasi 51,1% dengiz transporti 10 %dan ortig'ini tashkil qiladi. Yong'inga qarshi sug'urta to'lovlari 15,3%ni tashkil qiladi.

Sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan Yaponiya Moliya Vazirligi nazorat olib boradi. Vazirlik qoshidagi assotsiatsiyalar sug'urta, ayniqsa, avtomobil sug'urtasining stavkasini, baxtsiz hodisalardan, yong'in sug'urtasi va shaxsiy sug'urtaning boshqa xillari bo'yicha tariflarni belgilaydi.

Yaponiya sug'urta tashkilotlari iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lishlariga qaramasdan o'z faoliyatlarini kengaytirishga, buning uchun xarajatlarni kamaytirishga alohida ahamiyat beradilar. Yaponiyada yuklarni sug'urtalash diqqatga sazavordir. Oziq-ovqat, sanoat tovarlari, muzlatilgan go'shtlarni tashish alohida xususiyatlarga ega. Bunda tarif qo'llashda marshrut, yukning xili va tashish usuli hisobga olinadi. 1996 yil aprelda sug'urta qonuniga kiritilgan o'zgartirishlarda sug'urta ishida davlatning aralashuvini kamaytirish, mulk va shaxsiy sug'urtaning o'zaro munosabatlarining takomillashtirilishiga alohida ahamiyat berildi.

Aholi tarkibida qariyalarni hissasini oshib borishi sug'urtalashda ham e'tiborga olinmoqda. Avtomobil sug'urtasida haydovchini yoshi, tajribasi, mashina markasi, olib qochish sodir bo'lganda qarshilik ko'rsatish vositalari va boshqalar e'tiborga olinadi. Keyingi yillarda sug'urta tizimini yiriklashtirishga alohida e'tibor berildi. 6 ta mol-mulk va 11 ta shaxsiy sug'urta kompaniyalari tashkil

qilindi. Lekin shunga qaramasdan sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi raqobat davom etmoqda.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarda sug'urta xalqaro sug'urta bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi. Sug'urta yordami bilan yalpi milliy mahsulotining 8-12% taqsimlanadi. Sug'urta badallari yirik investitsiyalarning manbai hisoblanadi va sug'urta fondlaridan davlat qarzlarini to'lashda ham foydalaniladi.

Ko'pchilik mamlakatlarda sug'urta markazlashtirilmagan holda boshqariladi. Hozirda sug'urtani boshqarishni markazlashtirilgan holda tashkil qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Buning uchun zarar ko'rgan sug'urta tashkilotlarini faoliyati ustidan nazorat kuchaytirilmoqda.

Jahon miqyosida mamlakatlar o'rtasida sug'urta aloqalarini kuchaytirishda qayta sug'urtalash operatsiyalarini yanada rivojlantirish alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari har xil sug'urta turlari bo'yicha sug'urta xizmatlarini ko'rsatib kelmoqdalar. Masalan, sog'liq sug'urtasi, mulk sug'urtasi, tadbirkorlik riski sug'urtasi, foydani kamayish risklarini sug'urtalash, turli xildagi javobgarliklarni sug'urtalash va hokazo. Hamda turli sohalar manfaatlarini inobatga olgan holda turli ko'rinishdagi sug'urta turlarini joriy qilmoqdalar. Aloqa sohasi korxonalarini uchun asosan axborot risklari sug'urtasi, elektron uskunalari sug'urtasi, professional javobgarlik sug'urtasi, mulk risklari sug'urtasi, moliyaviy zarar ko'rishdan sug'urtalash kabi turlari bo'yicha ularning manfaatlari sug'urta qilinmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarining "Travelers" sug'urta kompaniyasi aloqa operator va internet provayderlari uchun telekommunikatsiya va axborot texnologiya sug'urtasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatib kelmoqda. Ularning sug'urta ob'ektlari asosan elektron uskunalari, aloqa vositalari, telefon qurilmalari, radioaloqa qurilmalari, simsiz aloqa qurilmalari, modemlar, Ethernet

texnologiyalari, serverlar, dasturiy mahsulotlari, kompyuterlari, tizimlari, axborot risklari hisoblanadi.

Buyuk Britaniyaning “AON BENFIELD” hamda “Markel direct” kompaniyalari telekommunikatsiya korxonalarining mulkiy manfaatlarini sug‘urta qiladilar.

Germaniyaning “Munich Re” sug‘urta kompaniyasi mulk risklari sug‘urtasi bo‘yicha aloqa sohasi korxonalariga ham sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatib keladi.

Rossiya Federatsiyasida ham sug‘urta munosabatlari rivojlanib kelmoqda. Rossiyaning “Ingosstrax” sug‘urta kompaniyasi turli sohalar xususan, AKT sohasi sug‘urtasi bilan ham shug‘ullanar ekan. Ushbu kompaniyaning AKT sohasi uchun sug‘urta turlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Axbotot aktivlarini va aloqa uskunalari sug‘urtasi
  - Axborot aktivlarini sug‘urtalash;
  - Elektron va kompyuter uskunalari sug‘urtalash;
2. Javobgarlik sug‘urtasi.
  - Axborot texnologiyasi sohasi professional javobgarlik sug‘urtasi;
  - IT xizmat ko‘rsatishda professional javobgarlik sug‘urtasi;
  - IT sohasida axborot tizimlarini riski va javobgarligini sug‘urtalash;
  - Ish beruvchining javobgarlik sug‘urtasi;
  - Aloqa vositalaridan foydalanishda fuqarolik javobgarlik sug‘urtasi.

Ularning har biri bilan qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

**1. Axborot aktivlarini sug‘urtasi.** Sug‘urta ob‘ekti – umumiy va maxsus dasturiy ta‘minoti, ma‘lumotlar bazasi, elektron hujjatlar, turli axborot resurslari va hokazo. Sug‘urta risklari:

- Kompyuter hujumlari;
- Kompyuter viruslarining tushishi;
- Axborot tizimlarini sozlash, ekspluatatsiya qilish, qayta ishlash natijasida behosdan ishdan chiqishi.

**2. Eletron va kompyuter uskunalari sug'urtalash.** Sug'urta ob'ekti – texnik vositalar: kompyuterga oid, telekommunikatsiya va boshqa uskunalari.

Sug'urta risklari:

- Yong'in, chaqmoq urishi, gaz portlashi;
- Tabiiy ofatlar;
- Kommunikatsiya uskunalari avariya holati;
- O'g'riliklar;
- Uchinchi shaxslarning g'arazli xatti – harakatlari;
- Xodimlarning uskunalardan noto'g'ri foydalanish natijasida ishdan chiqishi;
- Uskunalari o'rnatilayotganda yoki montaj qilinayotganda ishdan chiqishi;

**3. Axborot texnologiyasi sohasida professional javobgarlik sug'urtasi.**

Sug'urta ob'ekti – Rossiya Federatsiyasi qonunlariga zid bo'lmagan holda sug'urta faoliyatini amalga oshirish doirasida o'zining majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlik risklari bilan bog'liq bo'lgan sug'urtalanuvchining mulkiy manfaatlaridir.

Sug'urta riski – uchinchi shaxslarning mulkiy manfaatlariga zarar yetishi natijasida yuzaga keladigan quyidagi sabablardir:

- Lavozim/shartnomaviy majburiyatlarini bajarayotganda yuzaga kelayotgan professional xatoliklar, bundan tashqari, auditorlik xizmat ko'rsatishdagi, tashkilot faoliyatini turli ko'rinishdagi iqtisodiy – huquqiy jihatdan ta'minlayotganda.
- Lavozim/shartnomaviy majburiyatlarini bajarayotganda ma'lum aloqalarni o'rnatishda maxfiy ma'lumotlarni, tijorat sirlarini, maxfiy hujjatlarni beg'araz oshkor qilinishi natijasida vakolatlaridan mahrum bo'lishi yoki ishdan haydalihi.

**4. Ish beruvchining javobgarlik sug'urtasi.** Sug'urta ob'ekti – Sug'urtalanuvchining mulkiy manfaatlari sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Ishchilarning majburiyatlarini bajarayotgan paytda vafot etishi, zarar ko'rishi, kasb kasalligiga chalinishi, sog'lig'iga zarar yetishi hamda mol – mulkiga zarar yetishi natijasida ish beruvchi RF fuqarolik qonunlariga muvofiq moddiy javobgar hisoblanadi.

Sug'urta riski – Sug'urtalanuvchining lavozim majburiyatlarini bajarish jarayonida ishchilarning hayoti/sog'lig'i va/yoki mol – mulkiga zarar yetishiga sabab bo'lishi.

**5. IT xizmat ko'rsatishda professional javobgarlik sug'urtasi.** Sug'urta ob'ekti – Rossiya Federatsiyasi qonunlariga zid bo'lmagan holda sug'urta faoliyatini amalga oshirish doirasida o'zining majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlik risklari bilan bog'liq bo'lgan sug'urtalanuvchining mulkiy manfaatlaridir.

Sug'urta riski – uchinchi shaslarning mulkiy manfaatlariga zarar yetishi natijasida yuzaga keladigan quyidagi sabablardir:

- Lavozim/shartnomaviy majburiyatlarini bajarayotganda yuzaga kelayotgan professional xatoliklar, bundan tashqari, auditorlik xizmat ko'rsatishdagi, tashkilot faoliyatini turli ko'rinishdagi iqtisodiy – huquqiy jihatdan ta'minlayotganda.
- Lavozim/shartnomaviy majburiyatlarini bajarayotganda ma'lum aloqalarni o'rnatishda maxfiy ma'lumotlarni, tijorat sirlarini, maxfiy hujjatlarni beg'araz oshkor qilinishi natijasida vakolatlaridan mahrum bo'lishi yoki ishdan haydalashi.

**6. Aloqa vositalari, bino va hududlardan foydalanishda fuqarolik javobgarlik sug'urtasi.** Sug'urta ob'ekti – uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligi: mulkdan (bino, hudud, uskunalar) foydalanish jarayonida zarar yetkazishi hamda uchinchi shaxsning zarar ko'rishiga sabab bo'lsa. (masalan, yong'in chiqishi, avariya, buzilishi).

Sug'urta riski – sug'urtalanuvchining bino/imorat/boshqa mulkdan foydalanish jarayonidan ataylab qilinmagan xatolari va yuridik va jismoniy shaxslarning mol – mulkiga zarar yetkazishi natijasida zarar ko'rishi.

**7. AT sohasida axborot tizimlarini riski va javobgarligini sug'urtalash.**

Sug'urta ob'ekti. Elektron uskunalar (hisoblash texnikasi, kompyuterlar, serverlar, ish stansiyasi va boshqalar), sug'urtalanuvchining mulkiy huquqlari, ijara va lizingi hamda yordamchi uskunalar, telekommunikatsiya uskunolari va setlar, aloqa uzellari va boshqalar sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Sug'urta riski:

1. Eksploatatsiya qilish jarayonidagi xatoliklar, xizmatdagi personalning ehtiyotkorsizligi, uchinchi shaxslarning jinoyonkorona harakatlari;
2. Elektr toki natijasida qisqa elektr tutashuvlar, elektr tarmoqdagi kuchlanish va boshqalar natijasida ishdan chiqishi
3. Yong'in, chaqmoq urishi, gaz portlashi natijasida aloqa uskunalarining shikastlanishi;
4. Montaj va konstruktorlik ishkaridagi xatoliklar va boshqa tabiiy ofatlar natijasida zarar yetishi.

“ROSNO” sug'urta kompaniyasi Rossiyaning eng yirik universal sug'urta xizmat ko'rsatuvchi kompaniya hisoblanadi. Ushbu kompaniya mulkiy, shaxsiy, javobgarlik sug'urta turlari bo'yicha faoliyat yuritadi. AKT sohasidagi korxonalar uchun maxsus dastur ishlab chiqqan bo'lib, asosan mulkiy sug'urta bo'yicha xizmat ko'rsatadi. “ROSNO” SK mulkiy sug'urtada quyidagi sabablar sodir bo'lishi natijasida foydaning yo'qolishi yoki mulkni saqlash jarayonida yohud eksploatatsiya qilishda shikastlanishi kuzatilsa zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

- Yong'in, chaqmoq urishi, falokat, portlash;
- Sug'urtalangan mulklarning qulashi;
- Avariya holarlarida;
- Suv toshqini;
- bezorilik. bosqinchilik; buzg'unchilik bilan o'g'riliklar;
- Elektr tarmog'idagi qisqa tutashuvlar;
- Montaj, ekelpluatatsiya, uskunalarga xizmat ko'rsatishdagi xatoliklar.

Sug'urta ob'ektlari quyidagilar bo'lsihi mumkin: bino, hudud; uskunalar; electron uskunalar; kompyuter va orgtexnikalar; simli va sizensiz aloqa uchun maxsus uskunalar; telefon kabellari; optik kabellar.

“ROSNO” SK AKT sohasidagi asosiy mijozlari quyidagilardir: “Мобильные телесистемы” YAJ, “МГТС” OAJ, “Комстар”, “Совинтел”, “Голденлайн” YAJ, “Московский междугородный и международный



телефон” ОАЖ, МТУ-информ, Международная организация космической связи “Интерспутник”, “Система-телеком” АК, “Инком”.

Shunday qilib, turli mamlakatlarda aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayot tarziga moslashib, sug‘urta turli xil shakllarda namoyon bo‘lmoqda.

### **3.2. Aloqa operatorlari va internet provayderlar faoliyatida sug‘urta munosabatlarini rivojlantirishni ustivor yo‘nalishlari**

Mamlakatimizning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida sug‘urtalashning o‘rni kattadir. Majburiy va ixtiyoiy sug‘urta turlarining keng qamrovligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu, o‘z o‘rnida sug‘urtaning rivojlanishiga va omma orasida keng ko‘lamda tarqalishiga imkoniyat yaratadi. Mamlakatimizda sug‘urta tizimi yildan – yilga rivojlanmoqda. Fuqarolarning sug‘urtaga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgarmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli ko‘rinishdagi risklarning mavjudligi, tadbirkorlik sub’ektlarning zarar ko‘rish ehtimolligi yuqoriligi sababli sug‘urtaga bo‘lgan talab oshmoqda. Sug‘urta kompaniyalari yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini hisobga olgan holda, o‘zlarining turli ko‘rinishdagi sug‘urta turlarini taklif qilmoqdalar. Yuqoridagi talab va taklif natijasida sug‘urta munosabatlari vujudga kelmoqda.

Dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida axborot almashish tezligi oshib bormoqda. Axborotga bo‘lgan talab oshishi sababli aloqa korxonalari o‘zlarining xizmatlari orqali ushbu talablarni qondirishga harakat qilmoqdalar. Aloqa korxonalari orasida aloqa operatorlari hamda internet provayderlar ham aloqa va axborotga bo‘lgan talabni inobatga olib o‘zlarining xizmatlarini taklif etishmoqda. Aloqa operatorlari va internet provayderlari faoliyati ham yildan – yilga rivojlanib, taraqqiy etib boryapdi. Ularning faoliyati tavakkalchilikka asoslanganligi sababli, sug‘urtaga talab bo‘lishi tabiiydir. Sababi

ularga axborot ishlab chiqarish vositasi bo'lgan aloqa uskunalari keltirish, sozlash, o'rnatish qimmatga tushishini yuqorida ham keltirib o'tdik. Bundan tashqari yuqorida keltirib o'tilgan risklari ham mavjudligini inobatga olgan holda ushbu risklarni sug'urtalash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Hozirgi kunda "O'zbektelekom" AKning "Uzmobile" hamda "Biznesni rivojlantirish markazi" filiallari tomonidan aloqa uskunalari sug'urtalash, axborot risklarini sug'urtalash bo'yicha sug'urta munosabatlari keng yo'lga qo'yilmagan. Yuqoridagi risklar moliyaviy qiymatliklarga ega bo'lib, ularning yo'qolishi, tabiiy ofatlar, harbiy holatlar va xodimlarning e'tiborsizligi natijasida ishdan chiqishi, kerakli axborotlarning yo'qolishi, kompyuter hujumlari va shunga o'xshash ko'ngilsiz hodisalar bo'lishi mumkin. Bu esa xizmat ko'rsatish sifati pasayishiga, abonentlar soni kamayishiga, korxonalar daromadlarining bir qismi yo'qolishi hamda korxonalar obro'sining tushishiga olib keladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aloqa operatorlar va internet provayderlar faoliyatida sug'urta munosabatlari keng yo'lga qo'yish bo'yicha quyidagi takliflarni kiritishimiz mumkin:

- axborot risklari sug'urta turlarini takomillashtirish (Sug'urta tashkilotlari);
- axborot risklarini baholash bo'yicha tegishli me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish (Baholovchi tashkilotlar);
- aloqa vositalardan foydalanishda xodimlarning kasbiy javobgarlik sug'urtasi bo'yicha sug'urta turini joriy qilish ( OAJ "ALSKOM" SK);
- aloqa operatorlari va internet provayderlarining xodimlarini ixtiyoriy shaxsiy tibbiy sug'urta qildirish ("O'zbektelekom" AK "Uzmobile" va "BRM" filiallari).

Hozirgi kunda aksariyat sug'urta kompaniyalarda axborot risklari sug'urtasi turi mavjud emas. Faqatgina OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasida bu sug'urta turini uchratishimiz mumkin. Bu sug'urta turidan asosan banklar foydalanib kelmoqdalar.

Aloqa operator va internet provayderlar xizmatlaridan foydalanayotgan abonentlarning shaxsiy kabineti mavjud bo'lib, unda abonentning hisobidagi pul

mablag'lari qoldig'i, tarif rejasi turi va boshqa ma'lumotlar jamlangan. Bundan tashqari operator va provayderlarning veb saytlari orqali abonentlar turli tarif rejalar haqida ma'lumot olishlari, boshqa tarif rejalasiga o'zgartirishlari, ro'yxatdan o'tib ushbu kompaniyalarning abonentlariga aylanishlari va shunga o'xshash turli interaktiv xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Ushbu ma'lumotlar bazasi aloqa operatorlari uchun ham, internet provayderlari uchun ham qiymati yuqori baholanadigan mulki hisoblanadi. Axborot xavfsizligi ta'minlangan bo'lishiga qaramasdan kompyuter hujumlari uchrab turibdi. Kompyuter hakkerlari tomonidan turli hujumlar natijasida ma'lumot bazasi o'chib ketishi, abonentlarning hisoblaridagi pullar o'g'irlanishi va boshqa ko'ngilsiz hodisalar bo'lishi ehtimoli mavjud. Bundan operatorlar va provayderlar katta zarar ko'radi. Buning uchun aloqa operator va provayderlar axborot risklar sug'urtasi bo'yicha sug'urta munosabatlarga kirishishlari lozim bo'ladi. Shuning uchun sug'urta kompaniyalari ushbu sug'urta turini reklama va marketing tadqiqotlar orqali takomillashtirishlari kerak bo'ladi.

Axborot risklarini sug'urta qilish sohasida baholovchilar tomonidan axborotning qiymatini baholashda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Birinchi sababi sababi sxborot risklarini baholash metodikasi va shunga doir me'yoriy hujjatlarning mavjud emasligi, ikkinchisi esa baholovchi tashkilotlarda mehnat qilayotgan xodimlarning axborot sohasida yetarli malakaga ega emasliklaridir. Buning uchun axborotning qiymatini baholash bo'yicha me'yoriy hujjat va maxsus dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Aloqa korxonalarining har bir xodimi axborot ishlab chiqarishda va xizmatlar ko'rsatishda bevosita ishtirok etadi. Aloqa korxonalarining texnik xodimlari aloqa uskunalaridan foydalanish chog'ida ehtiyotsizligi oqibatida aloqa uskunalariga shikast yetishi yoki ishdan chiqishi mumkin. Buning natijasida korxonaning ma'lum xarajatlari ko'payishiga olib keladi. Texnik xodimlar esa korxonah rahbariyati va abonentlari oldida javobgar bo'ladi. Bunday holatni kamaytirishda maqsadida aloqa vositalar ekspluatatsiya qilish jarayonida

qatnashayotgan xodimlarning professional javobgarligini sug'urta qilish talab etiladi va bu esa yangi sug'urta turini joriy qilinishiga olib keladi.

Yuqoridagi keltirilgan takliflar o'rganib ko'rib chiqilsa hamda joriy qilinsa, axborot kommunikatsiya sohasida, shuningdek aloqa korxonalarini faoliyatida sug'urta munosabatlari rivojlangan va sug'urta tashkilotlarning sug'urta zaxirasi ko'paygan bo'lar edi. Bozorda o'z o'rnini saqlab qolish, raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatish va katta mijozlar sektoriga ega bo'lish bugungi kunda har bir korxonaning maqsadidir. Ushbu maqsadlarga erishishda korxonalar o'z bor kuch-salohiyatini ishga solishi, sug'urta imkoniyatlaridan keng foydalanishi va mijozlarini ham bunga moslashtira olishi darkor.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan tadbirlarning amalga oshirilishi aloqa xizmatlari samaradorligini ortishiga, innovatsion jarayonlarni tezlashtirishga hamda xodimlarni malakaviy saviyasi va moddiy manfaatdorligini ortishiga, soha menejmentini takomillashtirish va raqobat muhitini ta'minlash imkonini beradi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi sug'urta xizmatlari bozorida rivojlanish imkoniyatlari yaratilayotganligi va mazkur sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yaqin kelajakda sug'urtaning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini sezilarli darajada oshishidan dalolat bermoqda. Bu esa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda, O'zbekiston sharoitida uni yumshatishda yordam beradi.

## **IV. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI**

### **4.1. Ishlab chiqarish mikroiklimining gigienik normalari**

Xozirgi zamon ishlab chiqarishdagi jarayonlarni bajarishda ko'plab mashina va uskunalari ishlatiladi. Ularga aloxida-aloxida xavfsizlik talablari ishlab chiqarilgan. Shu boisdan bo'lg'usi kadrlarni tayyorlashda hayot faoliyati xavfsizligi masalalarini qismlarini ma'ruza matnida bayon etish lozim. Hayot faoliyat xavfsizligi fanini o'rganishda texnik, fizik-kimyoviy, tibbiy, biologik, qishloq xo'jaligi, xuquqiy va boshqa fanlarning yutuqlariga asoslanish zarur. Xalq xo'jaligining texnik jihatdan takomillashtirish, mexanizastiyalashtirish, avtomatlashtirish, kompyuterlar bilan ta'minlash, yangi turdagi energiyalardan foydalanish, qishloq xo'jaligini kimyoviy mineral o'g'itlar bilan ta'minlash va boshqa mehnat tizimida ham sifat ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishini ta'minlash kerak. Inson mehnat faoliyati jarayonida salomatlikka yomon ta'sir ko'rsatadigan faktorlarga duch keladi, ushbu faktorlarni insonga ta'sir darajasini baholash maqsadida chegaradagi ro'xsat etilgan daraja yoki aralashma tushunchasi kiritilgan. Bu daraja miqdori yuqori bo'lsa, odam organizmida faoliyat vujudga keladi va kasb kasalligiga uchraydi. Shunday qilib, hayot faoliyat xavfsizligi fani barcha qonunlashtiruvchi aktlar, ijtimoiy-iktisodiy, tadbirlar tizimi bo'lib insonni ishga qobiliyatligini, sog'ligini va xavfsizligini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish mikroiklimi normalari mehnat xavfsizligi standartlari sistemasi "Ish muhiti mikroiklimi" ga asosan belgilangan. Ular gigienik va texnik iqtisodiy negizlarga asoslangan.

Sanoat korxonalarini xonalarining xarakteri, yil fasllari va ish kategoriyasiga qarab, ulardagi harorat, nisbiy namlik va havo harakatining ish joylari uchun ruxsat etilgan normalari belgilangan.

Ish kategoriyalari quyidagicha belgilanadi: engil jismoniy ishlar (I kategoriya)—o'tirib, tik turib yoki yurish bilan bog'liq holda bajariladigan, biroq

muntazam jismoniy, zo‘riqish yoki yuklarni ko‘tarishni talab qilmaydigan ishlar, energiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J.S) ni tashkil etadi. Bunga radio qisimlarini yig‘ish korxonasi, aniq asbobsozlik va shu kabi korxonalar kiradi.

O‘rtacha og‘irlikdagi jismoniy ishlar (II kategoriya)–soatiga 150-250 kkal (172-293 J.S) energiya sarflanadigan faoliyat turlari kiradi. Bunga doimiy yurish va og‘ir bo‘lmagan (10 kg gacha) yuklarni tashish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar kiradi. Masalan, mexanik-yig‘uv, payvandlash stexlaridagi ishlar shular jumlasidandir.

Og‘ir jismoniy ishlar (III kategoriya)–muntazam jismoniy zo‘riqish xususan og‘ir yuklarni (10 kg dan ortiq) muttasil bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish va ko‘tarish bilan bog‘liq ishlar kiradi. Bunda energiya sarfisoatiga 250 kkal (293 J.S) dan yuqori bo‘ladi. Bundayishlartemirchilik, quyuvvaboshqa qatorstexlardabajariladi.

Harorat, nisbiy namlik va havo harakatining tezligi risoladagi va yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan miqdorlar ko‘rinishida normalanadi. Risoladagi miqdorlar deganda odamga uzoq muddat va muntazam ta’sir qilganda tashqi muhitga moslashuv reakstiyalarini kuchaytirmasdan organizmning normal faoliyatini va issiqlik holatini saqlashini ta’minlaydigan mikroiklim ko‘rsatgichlarining yig‘indisi tushunilib, ular issiqlik sezish mo‘tadilligini vujudga keltiradi va ish qobiliyatini yuksaltirish uchun shart-sharoit hisoblanadi. Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan mikroiklim sharoitlari-organizmning faoliyatini va issiqlik holatdagi o‘zgarishlarini, fiziologik moslanish imkoniyatlaridan chetga chiqmaydigan tashqi muhitga moslashish reakstiyalarining kuchayishini bartaraf etadigan va tez normaga soladigan mikroiklim ko‘rsatgichlarining yig‘indisidir. Bunda sog‘liq uchun xatarli holatlar vujudga kelmaydi, biroq nomo‘tadil issiqlik sezgilari, kafiyatning yomonlashuvi va ishqobiliyatining pasayishi kuzatilishi mumkin. 4.1.1, 4.1.2 – jadvalarda mikroiklimning risoladagi va yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan normalari keltirilgan. Doimiy ishlarda 4.1-jadvalda keltirilgan miqdorlar ta’minlanishi lozim, ular havoni mutadillashtirishda ham majburiydir.

Biroq qator hollarda, masalan issiqlik ko'p ajralib chiqadigan yoki isitiladigan xonalarining hajmi katta metallurgiya, mashinasozlik va boshqa zavodlarda yo'l qo'yiladigan normalarga (4.1.1, 4.1.2 – jadval) asoslanishi mumkin, biroq mehnat va dam olish rejimlariga qo'yiladigan gigienik talablarga, organizmning issiqlab ketishi va sovuq qotishini oldini olishga qaratilgan barcha vositalaridan foydalanishga ham amal qilish zarur.

#### 4.1.1-jadval

#### Ishlab chiqarish xonalari ish xonasidagi havoning harorati, nisbiy namligi va harakat tezligining normalari<sup>30</sup>

Yil fasli	Ish kategoriyalari	Havoning harorati, °S	Nisbiy namligi, %	Harakat tezligi, m/c
Sovuq	Yengil - I	20 – 23	60 - 30	0,2
	O'rtacha og'irlikdagi-II <sub>a</sub>	18 – 20	60 - 40	0,2
	O'rtacha og'irlikdagi-II <sub>b</sub>	17 –19	60 - 40	0,3
	Og'ir-III	16 – 18	60 - 40	0,3
Iliq davr	Yengil-I	20 – 25	60 - 40	0,2
	O'rtacha og'irlikdagi-II <sub>a</sub>	21 – 23	60 - 40	0,3
	O'rtacha og'irlikdagi-II <sub>b</sub>	20 –22	60 - 40	0,4
	Og'ir-III	18 – 21	60 - 40	0,5
Issiq	Yengil-I	20 – 30	60 - 40	0,3
	O'rtacha og'irlikdagi-II <sub>a</sub>	20 – 30	60 - 40	0,4 - 0,5
	O'rtacha og'irlikdagi-II <sub>b</sub>	20 – 30	60 - 40	0,5 - 0,7
	Og'ir - III	20 – 30	60 - 40	0,5 - 1,0

<sup>30</sup> Yormatov G'.Yo.,Isamuxamedov Yo.U. Mehnatni muxofaza qilish. Darslik. O'zbekistan nashriyoti. Toshkent 2002.

## 4.1.2-jadval

**Yilning sovuq va iliq davrida ishlab chiqarish xonalari harorati, nisbiy namligi va havo harakati tezligining yo‘l qo‘yiladigan normalari<sup>31</sup>**

Ish kategoriyalari	Havo harorati, °S	Nisbiy namligi, %	Harakat tezligi, m/c	Tashqaridagi havoharorati, °S
Engil - I	19 - 25	75	0,2	15 - 30
O‘rtacha og‘irlikdagi-II <sub>a</sub>	17 - 23	75	0,2	15 - 30
O‘rtachaog‘irlikdagi-II <sub>b</sub>	15 - 21	75	0,4	15 - 30
Og‘ir - III	13 - 19	75	0,5	15 - 30

Normalarda organizmning tashqi muhitga moslashish faqat tashqi sharoitlarga emas, balki mehnatning og‘ir-yengilligiga bog‘liq holda o‘zgarib turadigan issiqlik hosil qilishi miqdoriga aloqadorligi ham hisobga olinadi. Shunga ko‘ra yengilishlarda, o‘rtacha og‘irlikdagi va og‘irishlarga qaraganda, havoning birmuncha yuqori haroratlarda va harakatining bir muncha kam tezlikda bo‘lishi qabul qilingan.

Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan normalar yilning sovuq va bir mavsumdan ikkinchisiga o‘tish davrlarida (tashqi havoning) o‘rtacha kundalik harorati –10 °S dan yuqori (yoki muvofiq holda past) doimiy ish joylaridan tashqarida (4.1.1–jadval) bir muncha katta raqamlarda o‘zgarib turishi, yilning issiq paytida esa (4.1.2–jadval) stexlar havosining oshgan harorati (ayniqsa O‘rta Osiyo sharoitida va issiqlik ajralib chiqishi mumkin bo‘lgan stexlarda) issiqlikning aniq ortiqcha bo‘lishini ko‘zda tutadi. Bu tashqi muhitining issiq bo‘lishi bilan birga katta miqdordagi issiqlikni yo‘qotishni qiyinligi bilan bog‘liq.

Biroq bu holda ham normalar yo‘l qo‘ysa bo‘ladigan maksimumni chegaralaydi (ammo O‘rta Osiyo sharoiti uchu nemas). Issiqlik ajralishi yuqori bo‘lgan stexlarda havoning harakat tezligi ham birmuncha ortiqcha belgilanadi.

<sup>31</sup> Yormatov G.Yo., Isamuxamedov Yo.U. Mehnatni muxofaza qilish. Darslik. O‘zbekistan nashriyoti. Toshkent 2002.



Normativ standartlarda xonalarning katta kichikligi, issiqlik va namlik ajratilishning birga uchrashi, doimiy harorat yoki harorat va namlik kabilarni sun'iy usulda tutib turish sharoitlarini hisobga oladigan qator qo'shimcha tavsiyalar va aniqliklar ham mavjud.

Ko'rsatib o'tilgan normalarga qo'shimcha qilib, SN-245-71 da bayon etilganidek, ish joylarida issiqlikning nurlanish intensivligi  $300 \text{ kkal.m}^2$  dan yuqori bo'lganda albatta havo dushlari qurilish zarur ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda beriladigan havo harorati va harakat tezligi yil fasliga, ish kategoriyasi va issiqlik nurlarining ko'p-kamligiga bog'liq. Ish nechog'lik og'ir bo'lsa, harorat shunchalik past va havo harakati yuqori bo'ladi.

## **4.2. Aholi va hududlarni texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish**

### 1. Transport avariylari va halokatlari:

- ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan avia halokatlari;
- yong'inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibining buzilishiga sabab bo'lgan va temir yo'l xodimlarining, halokat hududidagi temir yo'l platformalarida, vokzallar binolarida va shahar imoratlarida sodir bo'lgan, buning natijasida odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir etuvchi zaharli (KTZM) moddalar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temir yo'l transportidagi halokatlari va avariylari;
- Portlashlarga, yong'inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTZMlarning zararli xossalari namayon bo'lishiga va odamlar

o‘limi (jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo‘ladigan avtomobil transportining halokati va avariylari, shu jumladan yo‘l transporti hodisalari;

- Odamlarning o‘limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunnillardagi halokatlar, avariylar, yong‘inlar;

#### *2. Kimyoviy xavfli ob‘ektlardagi avariylar:*

Atrof tabiiy muhitga kuchli ta‘sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) otilib chiqishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, hayvonlar va o‘simliklarning ko‘plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan darajada, yo‘l qo‘yilgan chegaraviy konstantriyalarida ancha ortiq miqdorda sanitariya-himoya hududidan chetga chiqib ketishiga olib kelgan kimyoviy xavfli ob‘ektlardagi avariylar, yong‘inlar va portlashlar;

#### *3. Yong‘in-portlash xavfi mavjud bo‘lgan ob‘ektlardagi avariylar:*

- texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong‘in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatadigan yoki saqlanadigan ob‘ektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishiga, shikastlanishiga va o‘limiga, ishlab chiqarish fondlarining nobud bo‘lishiga, favqulodda vaziyatlar hududida ishlab chiqarish stiklining va odamlar hayoti faoliyatining buzilishiga olib keladigan avariylar, yong‘inlar va portlashlar;

- Odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o‘limiga olib keladigan hamda qidirish-qutqarish ishlarini o‘tkazishni, nafas olish organlarining muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo‘llashni talab qiluvchi ko‘mir shaxtalaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog‘lik avariylar, yong‘inlar va jinslarning qo‘porilishi.

#### *4. Energetika va kommunal tizimidagi avariylar:*

- sanoat va qishloq xo‘jaligi mas‘ul istemolchilarining avariya tufayli energiya ta‘minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan GES, GRES, TEIqlardagi, tuman issiqlik markazlaridagi va boshqa energiya ta‘minoti ob‘ektlaridagi avariylar va yong‘inlar;

- aholi hayot faoliyatini buzilishiga va salomatligiga xavf tugʻilishiga olib kelgan gaz quvirlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvirlaridagi, kanalizatsiya va kommunal inshootlaridagi avariyaalar;

- atmosfera, tuproq, er osti va usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tugʻdiruvcha darajada konsentratsiyadagi zaharli moddalar bilan ifloslanishiga olib keladigan gaz tozalash quvirlaridagi, biologik va boshqa kommunal tizimlaridagi avariyaalar.

5. Odamlar oʻlimi bilan bogʻlik boʻlgan va zudlik bilan avariya-qutqaruv ishlari oʻtkazilishini hamda zarar koʻrganlarga shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatilishini talab qiladigan maktab, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy obʻektlar, shuningdek uy-joy sektori binolari konstruktsiyalarning toʻsatdan buzilishi, yongʻinlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

6. Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bogʻlik avariyaalar;

- radioaktiv materiallarni tashish vaqtidagi avariyaalar;
- biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassalarda biologik vositalarning atrof muhitga chiqib ketishi bilan bogʻlik vaziyatlar.

7. Gidrotexnik halokatlar va avariyaalar:

suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland togʻlardagi koʻllardagi suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hududlarda odamlar oʻlimiga, sanoat va iqtisodiyot obʻektlari ishining, aholi hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan avariyaalar.

Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib boʻlmaydigan ishlarning bajarilishi texnogen xususiyatdagi FV natijasida sodir boʻlgan avariya va halokatlarning koʻlamiga, turiga, fuqaro muhofazasi kuchlarining hajmiga hamda ularning tayyorgarlik darajasiga, sodir boʻlgan vaqtiga (yil davomida, kuni) ob-havoga va boshqa koʻpgina omillarga bogʻlikdir. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar vaqtida bajariladigan ishlarga tayyorarlikni

tashkil etish, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining hatti-harakatlari oldindan rejalashtirilgan asosida belgilanadi. Bu rejalar tuman, shahar va viloyat miqyosida oldindan tuzib chiqiladi. Rejani tayyorlashda sodir bo'lishi mumkin deb bashorat etilgan tabiiy ofatlar va ishlab chiqarishdaga avariya va halokatlar asos bo'lib xizmat qiladi.

Favqulodda vaziyatlar vaqtida fuqaro muhofazasi tuzilmalarining hatti-harakatlari o'z vaqtida tashkil etilgan va olib borilgan razvedka ma'lumotlariga hamda ma'lumotlarda aks ettirilgan aniq shart-sharoitga bog'likdir. Razvedka ishlari fuqaro muhofazasi kuchlarining vazifalariga mos va bajarilishi zarur bo'lgan keyingi hatti-harakatlarga bog'langan holda olib boriladi.

Razvedka guruhi tarkibiga tabiiy ofat sodir bo'lgan hududni, shu hududda joylashgan korxonalarining ishlab chiqarish xususiyatini hamda iqtisodiyot ob'ektlarini yaxshi biladigan mutaxassis kiritilishi kerak. Bordiyu, avariya yoki halokat kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar ishlatadigan yoki ishlab chiqaradigan korxonada sodir bo'lsa, razvedka guruhi tarkibiga albatta kimyogar mutaxassis kiritilishi va u kerakli ish qurollari, anjomlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Ushbu razvedka guruhida yana tibbiyot xodimi ham bo'lishi kerak.

Texnogen xususiyatli FVlar natijasida sodir bo'ladigan avariya va halokatlar oqibatlarini bartaraf etishga shu hududda joylashgan FVDT tuzilmalari jalb etiladi. Zarurat bo'lsa, fuqaro muhofazasi boshlig'ining ko'rsatmasiga bilan boshqa chegaradosh hududlar, shaharlar, viloyatlar va vazirliklarga qarashli tuzilmalar ham jalb etiladi. Qutqaruv otryadlarning yig'ilish joyi ish bajariladigan yo'nalishida joylashgan aholiga yaqin joylarida tashkil etiladi, tuzilmalarning bir hududda yig'ilishiga ketadigan ishlari uchun ajratilgan vaqt hisobiga favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun tuzilmalar yig'ilgan joydan to'g'ridan-to'g'ri va tezkorlik bilan favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududga yuboriladi. Belgilangan marshrut davomida vayrona uyumlari va yong'inlar, buzilgan ko'priklar bo'lishi mumkinligini

inobatga olgan holda tuzilmalarining harakati to'xtab qolmasligini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilishi kerak.

Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududga etib kelgan tuzilmalar ish bajarilishi kerak bo'lgan ob'ektga tez etib borishlarini ta'minlaydigan va ularga ajratilgan joyga yig'iladilar. Ana shu erda ular aniq o'z vazifalarini oladilar.

Tuzilma sardori tuzilma oldiga qo'yilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarilishiga mas'uliyatli shaxs hisoblanadi. U vazifani olgach, uni qo'l ostidagilarga tushuntirib beradi, sharoitga baho beradi, qaror qabul qiladi, og'zaki buyruq beradi va ishni tashkil etadi.

Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish jarayonida tuzilmalarning doimiy o'zaro aloqasi muhim ahamiyatga egadir. Tuzilmalarning bir joyda, bir vaqtda va bir maqsad uchun o'zaro kelishgan holda ish olib borishlari natijasida ular o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradilar.

Tuzilmalar topshirilgan vazifani bajarib bo'lganlaridan keyin, ish bajargan ob'ektdan tashqariga olib chiqarilib, hisoblangan vaqtda, yangi vazifani bajarish uchun tayyorgarlik ko'radilar. Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan hududlarda komendantlik xizmati tashkil etiladi. Bu xizmat favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududga yoki ob'ektga aholini yaqinlashtirmaydi, aholini va moddiy boyliklarni evakuasiya qiladi, jamoat tartibini saklaydi, tuzilmalar tomonidan o'rnatilgan tartibga hamda harakat qoidalariga rioya qilinishini nazorat qiladi, alohida ahamiyatta ega bo'lgan inshootlarni qo'riqlaydi. Komendantlik xizmatiga xo'jalik ob'ektlarining jamoat tartibini tuzilmalari hamda ichki ishlar xizmati xodimlari jalb etiladilar.

Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni muvaffaqiyatli bartaraf etishga quyidagicha erishish mumkin:

1. Razvedka ishlarini o'z vaqtida va doimiy tashkil etish;
2. Boshqaruvni doimiy va qat'iyat bilan tashkil etish;

3.FVDT kuch va vositalaridan guruhlarini tezkorlik bilan tashkil etish, ularni favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududlarga olib kelish;

4.Boshqaruv organlari va tuzilmalarning ma'naviy-ruhiy tayyorlash;

5.Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatishda kuch va vositalarning ishlashini uzviy bog'langan holda olib borish;

6.Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan ob'ektda yoki hududlarda komendantlik xizmatini tashkil etish;

7.Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, avariya-qutqaruv ishlarini amalga oshirishda FVDT kuchlarini moddiy hamda transport vositalari bilan ta'minlash;

8.Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirishda texnika xavfsizli qoidlarini bilish va ularga amal qilish.

Kommunal-energetika tarmoqlaridagi avariylarni cheklash yoki bartaraf etish. Kommunal-energetika tarmoqlaridagi avariya oqibatlarini bartaraf etishda ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik ko'rgan va qurollangan maxsus tuzilma mutaxassislari ishtirok etadilar. Ularga yordam berish uchun umumiy tuzilma a'zolari jalb etilishi mumkin.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu bitiruv malakaviy ishida aloqa operatorlari va internet provayderlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, aloqa xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida hozirgi kunda ularning manfaatlari sug'urtalanganlik darajasi, respublikada sug'urta bozorining hozirgi holati va imkoniyatlari, rivojlangan chet davlatlarda sug'urta munosabatlarining tashkil etilish tamoyillari o'rganildi. Tahlillarning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda respublikada sug'urta sohasining rivoji, sug'urta kompaniyalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari, OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasining ko'rsatkichlari, sug'urta turlari tahlil qilindi va "O'zbektelekom" AKning "Uzmobile" hamda "Biznesni rivojlantirish markazi" filiallari misolida sug'urta munosabatlari o'rganib chiqildi, aloqa sohasida sug'urta munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida ish mavzusining dolzarbligi asoslab berildi, mavzuning ilmiy jihatdan tadqiq etilganlik darajasi aniqlandi, ishning asosiy maqsadi va vazifalari, uslubiy asoslari belgilab berildi.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida sug'urta munosabatlarning iqtisodiy mohiyati, ularga bo'lgan zarurat, sug'urtaning vazifalari, turlari, sug'urta bozori va uning professional qatnashchilari, aloqa operator va internet provayderlari faoliyati, ularning o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy ko'rsatkichlari, mulkiy manfaatlarini sug'urtalash zarurligi ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida O'zbekiston sug'urta kompaniyalari, ularning sug'urta bozoridagi o'rni, yig'ilgan sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlarining tahlil, sug'urta kompaniyalarining ustav fondlari miqdori, OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasining sug'urta turlari, iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlili, "O'zbektelekom" AK "Uzmobile" va "Biznesni rivojlantirish markazi" filiallari sug'urta munosabatlarda qatnashganligi aks ettirildi.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida chet davrlarda sug'urta munosabatlarini tashkil etilganligi, sug'urta kompaniyalarining axborot – kommunikatsiya sohasini sug'urtalash bilan shug'ullanishi, sug'urta turlari haqida ma'lumot berildi hamda aloqa sohasida sug'urta munosabatlarini rivojlantirishda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ish bo'yicha amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1. Tahlil natijalariga ko'ra O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanayotgan davrda aloqa xizmatlari samaradorligi, sifatini oshirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida sug'urta munosabatlarining keng imkoniyatlaridan foydalanish va axborot risklarini sug'urta qilishni takomillashtirish va ularni baholash uchun me'yoriy hujjat ishlab chiqish taklif etildi.

2. Aloqa korxonalarida aloqa vositalardan foydalanishda xodimlarning kasbiy javobgarlik sug'urtasi bo'yicha sug'urta turini joriy qilish taklifi kiritildi

3. Aloqa sohasida axborot ishlab chiqarishdagi va xizmat ko'rsatishdagi barcha electron uskunalarni, shuningdek, aloqa uskunalari ya'ni terminallarini sug'urtalashni takomillashtirish bo'yicha taklif kiritildi.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan tadbirlarning amalga oshirilishi aloqa xizmatlari samaradorligini ortishiga, xususan, innovastion jarayonlarning tezlashishiga, qo'shimcha xizmat turlarining joriy etilishiga, aloqa operator va internet provayderlar xizmatiga bo'lgan ishonchning ortishiga, nufuzining ko'tarilishiga va milliy iqtisodiyotimizda yaratilgan sug'urta imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga zamin yaratadi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2011 y. 408 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1999 yil 20 avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida” gi Qonuni. – Toshkent. 2003 yil 11 dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida ” gi Qonuni. 2008 yil 21 fevral.
6. “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida ” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi Qonun. 14 aprel 2011 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 31 may 2011 yildagi 1544 – sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiyalari davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF – 4475 sonli farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida” gi Qarori. 24 iyun 2009 yil.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi.12.11.2010.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 18.01.2013 yil.

12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010. 43 – bet.
13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: “O‘zbekiston”, 2009. 4– bet.
14. Karimov I.A “Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning xayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir” asari. Toshkent „O‘zbekiston” nashriyoti. 2007 yil. 4 – bet.
15. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifamiz. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2000 yil, 16 fevral.
16. Abdullayev Yo., Baymuratov T.M. Sug‘urta faoliyatini soliqqa tortishda dunyo talablari darajasiga erishish. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2003 yil 3-son. 50-51 bet
17. Abduraxmonov I.X., Toshbekov M.M. Javobgarlik sug‘urtasining bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati. Moliya. 2004y. 4-5 bet.
18. Baymuratov T.M. Sug‘urta faoliyatida risklar transferi. – T.: Iqtisod-moliya, 2005. – 196 b.
19. Baymuratov T.M. Sug‘urtaviy kafillik xizmati bozori: risklar transferi va transformatsiyasi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, 2001 yil 3-son. 36-37 betlar.
20. Belov S.V. Bezopasnost jiznedeyatelnosti M.: Vysshaya shkola. 2003.
21. Bobomurodov X.M. Sindarov Sh. Aloqa va axborotlashtirish iqtisodiyoti. Toshkent 2007 yil. 16-17 betlar.
22. Boyev X., Mirzoyev S. Aholini ijtimoiy himoyalash va shaxsiy sug‘urta. Bozor, pul va kredit, 2002 yil 2-son. 38-39 betlar.
23. Imomov Sh.B. Sug‘urta-iqtisodiyotni himoyalash va rivojlantirishning muhim omili. Xalq so‘zi, 2002 yil 27 noyabr. 1-2 bet.
24. Malikov T.S, Shennayev X.M. Sug‘urta va uning afzalligi nimada? Jamiyat va boshqaruv, 2003 yil 3-son. 37-39 bet.
25. Mamajonov Sh., Inamova D. Sug‘urta ishi. Namangan 2004 yil. 14-15 bet.

26. Qobulov H.A. Sug'urta asoslari. Andijon 2009 yil. 22-31 betlar.
27. Shennayev X.M. Sug'urta sizga nima beradi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2003 y. 106 bet.
28. Shennayev X.M. O'tish davri iqtisodiyotida sug'urta masalasi va uni takomillashtirish. Bozor, pul va kredit, 2005 yil 3-son. 23-25 b.
29. Shennayev. X.M. Baymuratov T. Sug'urta ishi. Toshkent 2006 yil. 5-13, 55-59, 111-114, 174-194 betlar.
30. Yormatov G'.Yo., Isamuxamedov Yo.U. Mehnatni muxofaza qilish. Darslik. O'zbekistan nashriyoti. Toshkent 2002.
31. OAJ "ALSKOM" sug'urta kompaniyasining yillik moliyaviy va reyting hisobotlari.
32. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari. Izohli lug'at. Toshkent 2004 yil.
33. "O'zbektelekom" AK yillik moliyaviy hisobotlari va reyting ko'rsatkichlari.
34. "Uzreport Insurance" yillik va reyting hisobotlari.
35. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
36. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
37. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
38. [www.ccitt.uz](http://www.ccitt.uz)
39. [www.ALSKOM.uz](http://www.ALSKOM.uz)
40. [www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz)
41. [www.uztelecom.uz](http://www.uztelecom.uz)
42. [www.allinsurance.ru](http://www.allinsurance.ru).
43. [www.ingos.ru](http://www.ingos.ru)
44. [www.aon.com](http://www.aon.com)
45. [www.aig.com](http://www.aig.com)

## ILOVALAR

## 1 – ilova

## Hayotni sug'urta qilish sohasi tarkibidaga klasslar

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	<b>Hayot annuitetlar va</b>	<p>Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi;</li> <li>• sug'urta qilinuvchining vafot etishi;</li> </ul> <p>shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno</p>
II klass	<b>Nikoh tug'ilish va</b>	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami
III klass	<b>Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish</b>	Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami
IV klass	<b>Sog'liqni sug'urta qilish</b>	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga etguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summalari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas

## 2 – ilova

## Umumiy sug'urta qilish sohasi tarkibidagi klasslar

<b>Klass tartib raqami</b>	<b>Klassning nomi</b>	<b>Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar</b>
1-klass	<b>Baxtsiz hodisalar-dan ehtiyot shart sug'urta qilish</b>	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
2-klass	<b>Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish</b>	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-klass	<b>Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish</b>	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
4-klass	<b>Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish</b>	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
5-klass	<b>Aviatsiya sug'urtasi</b>	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunolari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
6-klass	<b>Dengiz sug'urtasi</b>	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunolari, asbob-uskunolari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
7-klass	<b>Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish</b>	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami

## 2 – ilova (davomi)

8-klass	<b>Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish</b>	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
9-klass	<b>Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish</b>	8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
10-klass	<b>Avtofuqa-rolik javobgarli-gini sug'urta qilish</b>	Yer usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
11-klass	<b>Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgar-likni sug'urta qilish</b>	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
12-klass	<b>Dengiz sug'urtasi doirasida javobgar-likni sug'urta qilish</b>	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
13-klass	<b>Umumiy fuqarolik javobgarli-gini sug'urta qilish</b>	10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
14-klass	<b>Kreditlarni sug'urta qilish</b>	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
15-klass	<b>Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish</b>	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

**2 – ilova (davomi)**

16-klass	<b>Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish</b>	<p>Quyidagi hollarda:</p> <p>a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda;</p> <p>b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari);</p> <p>v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami</p>
17-klass	<b>Huquqiy himoya qi-lish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish</b>	<p>Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami</p>

## 3 – ilova

## “Alskom” sug’urta kompaniyasining sug’urta xizmat turlari

Yuridik shaxslar		Jismoniy shaxslar	
<b>Mulkiy sug'urta</b>			
1	Mulk sug’urtasi, shuningdek garovga qo’yilgan mulk sug’urtasi;	1	Mulk sug’urtasi, shuningdek garovga qo’yilgan mulk sug’urtasi;
2	Mol-mulkni saqlash davri mobaynida sug’urta qilish;	2	Mol-mulkni saqlash davri mobaynida sug’urta qilish;
3	Lizing obyektlari sug’urtasi;	3	Lizing obyektlari sug’urtasi;
4	Yer usti transport vositalari, shuningdek kreditga olingan transport vositasi sug’urtasi;	4	Ipotekani sug’urat qilish;
5	Elektron va qimmatbaho texnika sug’urtasi;	5	Yer usti transport vositalari, shuningdek kreditga olingan transport vositasi sug’urtasi;
6	Yuk sug’urtasi;	6	Elektron va qimmatbaho texnika sug’urtasi;
7	Ko’rgazmalar, sport va madaniy tadbirlar (tashrif buyuruvchilar oldida mulk va javobgarlik) sug’urtasi;	7	Yuk sug’urtasi;
8	Qurilish-montaj ishlari sug’urtasi;	8	Qishloq xo’jaligi hayvonlarini sug’urta qilish;
9	Havo kemalarini sug’urta qilish;	9	Axborot xavflarini sug’urta qilish;
10	Qishloq xo’jaligi hayvonlarini sug’urta qilish;	10	Xorijga safarning bekor qilinishi oqibatida ko’rilgan sarf – xarajatlarni sug’urta qilish;
11	Axborot xavflarini sug’urta qilish;	11	Lombardga garovga qo’yilgan mulkni sug’urta qilish;
12	Ko’p yillik mevali, manzarali daraxtlar va toklar hamda ularning ko’chatlarini tabiiy ofat va boshqa qaltisliklardan zararlanishi yoki nobud bo’lishidan sug’urta qilish;	12	Fuqarolarga tegishli uy-joy (kvartira) larni sug’urta qilish.
<b>Shaxsiy sug'urta</b>			
1	Korxonalar xodimlari va jismoniy shaxslarni baxtsiz hodisalardan sug’urta qilish;	1	Baxtsiz hodisalardan sug’urta qilish;
2	Xorijga chiquvchilarni sug’urta qilish;	2	Plastik kartochka egalarini sug’urta qilish;
3	Aloqa operatorlari va internet-provayderlaridan foydalanuvchi abonentlarni sug’urta qilish;	3	Xorijga chiquvchilarni sug’urta qilish;
4	Ixtiyoriy tibbiy sug’urta;	4	Ixtiyoriy tibbiy sug’urta;
5	Advokatlar, shuningdek pul mablag’larini saqlash va tashishga moddiy javobgar shaxslarning hayoti va sog’ligini sug’urta qilish;	5	Sport va ommaviy-jismoniy tadbirlar ishtirokchilarini baxtsiz hodisalardan sug’urta qilish;
6	Umumiy foydalanishdagi temir yo’l, ichki suv va avtomobil transporti yo’lovchilarini baxtsiz hodisalardan sug’urta qilish;	6	Dam olish uylari, sanatoriya-kurort muassasalarida hordiq oluvchilarni baxtsiz hodisalardan sug’urta qilish;



**3 – ilova (davomi)**

7	Sport va ommaviy-jimoniylar tadbirlar ishtirokchilarini baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish;	7	Oilani sug'urta qilish;
8	Dam olish uylari, sanatoriya-kurort muassasalarida hordiq oluvchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish;	8	Bolalarni sug'urta qilish;
9	Istirohat bog'iga tashrif buyuruvchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish.	9	Kelin-kuyovlarni sug'urta qilish;
		10	Istirohat bog'iga tashrif buyuruvchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish.
<b>Javobgarlik sug'urtasi</b>			
1	Umumfuqarolik javobgarlikni sug'urta qilish;	1	Umumfuqarolik javobgarligi sug'urtasi;
2	Yer usti transport vositalari egalarining javobgarliklarini sug'urta qilish;	2	Yer usti transport vositalari egalarining javobgarliklarini sug'urta qilish;
3	Havodagi tashuvchi transportlar va havo kemalari fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;	3	Sud boshqaruvchilarning kasbiy javobgarliklarini sug'urta qilish;
4	Maxsus paxta terminallarining uchinchi shaxs oldidagi javobgarligini sug'urta qilish;	4	Soliq maslahatchilarining fuqarolik-xuquqiy javobgarligini sug'urta qilish;
5	Qimmatbaho pochta jo'natmalari sug'urtasi;	5	Rieltorlarning umumfuqarolik javobgarligini sug'urta qilish.
6	Auditorlarning kasbiy javobgarliklarini sug'urta qilish;		
7	Notariuslarning kasbiy javobgarliklarini sug'urta qilish;		
8	Baholovchilarning kasbiy javobgarliklarini sug'urta qilish;		
9	Sayyohlik faoliyati ishtirokchilarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish;		
10	Bojhona brokerlarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish;		
11	Sertifikatlovchilarning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish;		
12	Omonat qo'yilmalarining qaytmasligi bo'yicha moliyaviy tashkilotlarning javobgarligini sug'urta qilish;		
13	Depozitariylarning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish;		
14	Rieltorlarning umumfuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;		
15	Xavfli yuklarni avtomobil transportida tashuvchilarning umumfuqarolik javobgarligini sug'urta qilish.		

## 3 – ilova (davomi)

<b>Tadbirkorlik xavflarini sug'urta qilish</b>			
1	Shartnoma majburiyatini bajarmaslik holatidagi moliyaviy xavflarni sug'urta qilish;	1	Qarz oluvchining kredit to'lay olmaslik javobgarligini sug'urtalash.
2	Qarz oluvchining kredit to'lay olmaslik javobgarligini sug'urtalash;		
3	Eksport bitimlarini sug'urta qilish;		
4	Yog'-moy ekinlarini yetishtiruvchi qishloq xo'jalik korxonalarining ekinlaridan kam hosil olishi natijasida ko'radigan moliyaviy zararini sug'urta qilish.		
<b>Majburiy sug'urta</b>			
1	Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;	1	Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish.
2	Qurilish-montaj xavflarini majburiy sug'urta qilish;		
3	Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;		
4	Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;		
5	Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog'lig'ini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish.		